

Muslim Vosidiy  
**TURK TILINI**  
MUSTAQIL  
**O'RGANAMIZ**

Muslim Vosidiy

**TURK TILINI**  
MUSTAQIL  
**O'RGANAMIZ**  
TÜRKÇE ÖĞRENECEĞİZ



## **Kitob kimlar uchun?**

Bu kitob asosan quyidagi toifa insonlar uchun mo'ljallangan.

- Turk tilini mutlaqo boshidan o'rganmoqchi bo'lganlar uchun.
- Turk tilini oz biladigan va bu tilni yanada mukammal o'rganmoqchi bo'lganlar uchun.
- Turkiyaga borish oldidan bu tilni tezkor o'rganish istagida bo'lganlar uchun.
- Kitobdan turk tilini o'rgatuvchi o'qituvchilar ham qo'llanma sifatida foydalanishlari mumkin.
- Turk tilidagi kitoblarni o'qiy olish, turkcha filmlarni anglash istagida bo'lganlar uchun va hokazo.

## **Kitobdan qanday foydalanish mumkin ?**

Bu kitob orqali siz Turk tilini mustaqil o'rganishingiz ham mumkin. Agar ustoz yordami bilan o'rgansangiz yanada oson o'rganasiz. Ammo ustoz topa olmasangiz bu kitobni diqqat bilan o'rganishingiz lozim. O'zingizga har kun bir soat ajrating va shu soat ichida bir kunlik darsni o'qib o'rganing. Shuni unutmang-ki, bir kunning darsini to'liq o'qimay turib keyingi darsga o'tmang. Kitobda ba'zi so'zlarni rus tilidagi tarjimasi ham qo'shib yozildi. Chunki ko'p kishilar bu so'zlarga odatlanib asl o'zbekchasini ishlatmay qo'yganligini hisobga oldik. Masalan: "o'rindiqlar" so'zi bilan birga "kreslo" so'zini birga yozdik.

Kitobda har kunlik yodlash uchun so'zlar mavjud. Siz bu so'zlarni yodlagach mashqlarni bajarasiz. Berilgan matnlarni o'qiysiz. Iloji bo'lsa matnlarni ovoz chiqarib o'qing. Kitobdan foydalanish davomida turk tilidagi filmlari yoki multfilmlarni tomosha qilsangiz o'rganish yanada qiziqarli bo'lib talaffuzni ham o'rganasiz. Turkcha film yoki multfilmlarni internet saytlaridan topishingiz mumkin.

## **Kitob muallifiga savol taklifingiz bo'lsa...**

Agar, muallifga taklif yoki savollaringiz bo'lsa ushbu email orqali bog'lanishingiz mumkin. Muslim1024@gmail.com

Bundan tashqari facebook sahifasida: facebook.com/muslimbek

Agar boshqa turdagi kitoblar bilan tanishmoqchi bo'lsangiz: [www.muqova.uz](http://www.muqova.uz) saytiga kirishingiz mumkin.

<http://qalam.uz> Studiyasi. Web dizayn va dasturlash.

# 1-DARS

## TÜRK ALFABESİ - TURK TILI ALIFBOSI

Turk tilining alifbosi Lotin harflaridan olingan bo'lib, 1928-yil 1-noyabr kuni qabul qilingan. "Yangi Turk tili" alifbosida 29 ta harf bor.

Harflarni o'qing va qanday talaffuz etilishiga diqqat qiling

Turkcha harflar	O'zbekcha talaffuz etilishi
<b>Aa</b>	A ( <b>asal, amaki</b> )
<b>Bb</b>	B ( <b>balıq, buxoro</b> )
<b>Cc</b>	J ( <b>Jahon, jo'xori</b> )
<b>Çç</b>	Ch ( <b>Choy, chaqmoq</b> )
<b>Dd</b>	D ( <b>Dengiz, daryo</b> )
<b>Ee</b>	E ( <b>Erkin, echki</b> )
<b>Ff</b>	F ( <b>Fantan, fil</b> )
<b>Gg</b>	G ( <b>Gap, gilam</b> )
<b>Ğğ</b>	G' (bu yumshoq o'qiladi, ba'zan Y harfiga yaqin o'qiladi)
<b>Hh</b>	H (yumshoq o'qiladi, xuddi tomog'imizdan faqat havo chiqayotgani kabi)
<b>ıı</b>	Rus tilidagi "ы" kabi o'qiladi. Masalan: nasıl – насыл
<b>İi</b>	I (inson, ilm)
<b>Jj</b>	J Rus tilidagi Ж kabi o'qiladi ( <b>jurnal, jirafa</b> )
<b>Kk</b>	K ( <b>Kema, karvon</b> )
<b>Ll</b>	L ( <b>Lola, limon</b> )
<b>Mm</b>	M ( <b>Mandarin, Makaron</b> )
<b>Nn</b>	N ( <b>Non, norin</b> )
<b>Oo</b>	O ( <b>Odam, osmon</b> )
<b>Öö</b>	O' ( <b>O'rgimchak, o'g'il</b> )
<b>Pp</b>	P ( <b>Parda, pasport</b> )
<b>Rr</b>	R ( <b>Raqam, rayhon</b> )
<b>Ss</b>	S ( <b>Soch, sariq</b> )
<b>Şş</b>	Sh ( <b>Shamol, shogird</b> )
<b>Tt</b>	T ( <b>Toshkent, timsoh</b> )
<b>Uu</b>	U ( <b>Uzum, )</b>
<b>Üü</b>	O' harfiga o'xshash, yoki ruscha IO kabi o'qiladi. ( <b>üniversite – o'niversite</b> )
<b>Vv</b>	V ( <b>Viloyat, varrak</b> )
<b>Yy</b>	Y ( <b>Yordam, yulduz</b> )
<b>Zz</b>	Z ( <b>Zebra, zaytun</b> )

### Unli harflar

Turk tilida 8 ta unli harf mavjud. Bu unli harflar ikkiga bo'linadi jarangli unlilar va jarangsiz unlilar:

1-Jarangli (qalin) unlilar: Aa, ıı, Oo, Uu.

2- Jarangsiz (yumshoq) unlilar: Ee, İi, Öö, Üü

## Undosh harflar

Undosh harflar esa 21 tani tashkil etadi. Undoshlar ham ikkiga, jarangli va jarangsiz undosh harflarga bo'linadi:

1-Jarangli: Ff, Ss, Tt, Kk, Çç, Şş, Hh, Pp.

2- Jarangsiz: Bb, Cc, Dd, Gg, Ğğ, Jj, Ll, Mm, Nn, Rr, Vv, Yy, Zz.

## SÖZLÜK – LUG'AT.

So'zlarni o'qing va yodlang

<b>Ben</b>	- Men	<b>Bu</b>	- Bu
<b>Sen / Siz</b>	- Sen / Siz	<b>Ne</b>	- Nima
<b>O</b>	- U (ana u)	<b>Nerede</b>	- Qayerda
<b>Yaşamak</b>	- Yashamoq	<b>Okumak</b>	- O'qimoq
<b>Kitap</b>	- Kitob	<b>Çalışmak</b>	- Ishlamoq
<b>Nasıl</b>	- Qanday	<b>Adın ne?</b>	- isming nima?
<b>İyi</b>	- Yaxshi	<b>Adım ...</b>	- ismim ....



## DİL BİLGİSİ - GRAMMATIKA

Kishilik omoshlari (Men, sen, u ....) va Hozirgi zamon Fe'li (ish harakat) bir biriga qanday bog'lanadi? Misol uchun O'zbek tilida "Men" olmoshiga "Yashamoq" fe'lini bog'lasak. Hozirgi zamonda:

(yashamoq) Men yasha+yapman, Sen yasha+yapsan, U yasha+yapti

(ishlamoq) Men ishla+yapman, Sen ishla+yapsan, U ishla+yapti

## TURK TILIDA HOZIRGI ZAMON QO'SHIMCHALARI

<p>Ben (Men)</p> <p>Okuyorum (o'qiyapman)</p> <p>Çalışıyorum (ishlayapman)</p> <p>Yaşıyorum (yashayapman)</p>	<p>O (U)</p> <p>Okuyor (o'qiyapti)</p> <p>Çalışıyor (ishlayapti)</p> <p>Yaşiyor (yashayapti)</p>
<p>Sen (Sen)</p> <p>Okuyorsun (o'qiyapsan)</p> <p>Çalışıyorsun (ishlayapsan)</p> <p>Yaşıyorsun (yashayapsan)</p>	<p>Siz (Siz)</p> <p>Okuyorsunuz (o'qiyapsiz)</p> <p>Çalışıyorsunuz (ishlayapsiz)</p> <p>Yaşıyorsunuz (yashayapsiz)</p>

## BILDIRISH QO'SHIMCHASI

Ma'lumki, o'zbek tilida biror narsaning o'rnini – joyini bildirish uchun ...da qo'shimchasi qo'shiladi. Masalan uyda, ko'chada.

Turk tilida bildirish qo'shimchasi sifatida: **'da ('de)** ishlatiladi. Masalan **Ev'de** – uyda, **Fabrika'da** – fabrikada, **Şehir'de** – Shaharda

Qo'shimchalar so'z oxiridagi harflarga ko'ra o'zgaradi. Qachon –da, -de, -ta, -te ishlatilishini ko'rib chiqamiz.

So'zdagi oxirgi yoki oxirigidan bitta oldingi harf jarangli unli bo'lsa **'da** yoki **'ta** qo'shimchasi qo'shiladi:

**a, ı, o, u** => **-da / -ta**

So'zdagi oxirgi yoki oxirigidan bitta oldingiz harf jarangsiz unli bo'lsa **'da** yoki **'ta** qo'shimchasi qo'shiladi:

**e, i, ö, ü** => **-de / -te**

So'zdagi faqat oxirgi harf jarangli undosh bo'lsa **-ta** yoki **-te** qo'shiladi

**f, s, t, k, ç, ş, h, p** => **-ta / -te**

### Misollar

Agar oxirigidan bitta oldingi harf jarangli unli (a, ı, o, u) bo'lsa, va oxirgi harfi jarangli undosh (f, s, t, k, ç, ş, h, p) bo'lsa, u holda **-ta** qo'shiladi

Masalan: uçak'**ta**, taraf'**ta**

Agar oxirigidan bitta oldingi harf jarangsiz unli (e, i, ö, ü) bo'lsa, va oxirgi harfi jarangli undosh (f, s, t, k, ç, ş, h, p) bo'lsa, u holda **-te** qo'shiladi

Masalan: Taşkent'**te**, Gaziantep'**te**

Boshqa hollarda yuqorida ko'rsatilgan so'z oxiridagi harfga ko'ra **-da** yoki **-de** qo'shimchasi qo'shiladi.

Masalan: araba'**da**, yol'**da**, okul'**da**, izmir'**de**, ev'**de**, deniz'**de**

## BUYRUQ FE'L

Ma'lumki o'zbek tilida "-moq" qo'shimchasidan faqatgina fe'l yasash mumkin. Masalan "**Bormoq**" so'zi bu fe'l (ish-harakat). Buyruq ko'rinishi esa - **bor!**

"**O'qimoq**" so'zi bu fe'l. Buyruq ko'rinishi esa - **o'qi.**

Turk qilida esa fe'l yasash qo'shimchasi sifatida "**-mak**" yoki "**-mek**" qo'shimchasi ishlatiladi. Masalan:

**Yapmak** – qilmoq, **yap** – qil.

**Okumak** – o'qimoq, **oku** – o'qi.

**Gelmek** – Kelmoq, **gel** – kel

Qo'shimchalar fe'ldagi oxirgi unliga ko'ra o'zgaradi.

Quyida Turk tilida fe'l yasash usuli berilgan. Ular:

Jarangli unililardan keyin - a,i,o,u = mak (**Bakmak, okumak**)

Jarangsiz unililardan keyin - e,i,ö,ü = mek (**Gitmek, gelmek**)

### 1-MASHQ – ona tilingizga tarjima qiling.

Adın ne, adım Farida. Nasıl sen (Nasılsın), iyi. Bu ne, Bu kitap, Bu nasıl kitap, Bu iyi kitap. Ben kitap okuyorum, Sen ne okuyorsun. Kitap nerede. Sen nerede okuyorsun. Ben Üniversite'de okuyorum. Sen nerede çalışıyorsun. Ben fabrika'da çalışıyorum. Fabrika nerede? Fabrika Taşkent'te. O nerede okuyor. O üniversite'de okuyor. Siz nerede yaşıyorsunuz. Ben Çilonzor'da yaşıyorum. O nasıl çalışıyor. O iyi çalışıyor. Ahmed nasıl kitap okuyor. O iyi kitap okuyor. O nerede kitap okuyor? Bu nasıl kitap? Bu iyi kitap. Sen kitap oku!

### 2-MASHQ – Turk tiliga tarjima qiling

Men nima o'qiyapman, Men kitob o'qiyapman. Men yaxshi kitob o'qiyapman. Bu nima? Bu kitob. U qayerda ishlayapti. U fabrikada ishlayapti. Fabrika qayerda? Fabrika Toshkentda. Sen qayerda o'qiyapsan? Siz qayerda o'qiyapsiz? U qayerda o'qiyapti? U istanbulda o'qiyapti. U qanday kitob o'qiyapti. Siz qanday kitob o'qiyapsiz.

### 3-MASHQ – do'stingiz bilan savol javob qiling:

(isingiz nima, qandaysan, qayerda yashaysan, qayerda o'qiysan, qayerda ishlaysan)

# 2-DARS

## SÖZLÜK – LUG’AT.

So’zlarni o’qing va yodlang

<b>Merhaba</b> - Marhabo	<b>Biz</b> - Biz
<b>Günaydın</b> - Xayrli tong / kun	<b>Onlar</b> - Ular
<b>İyi günler</b> - Xayrli kun	<b>Ev</b> - Uy
<b>İyi akşamlar</b> - Xayrli kech	<b>Az</b> - Kam / oz
<b>Çok</b> - Ko’p, juda	<b>Şimdi</b> - Hozir
<b>Burada</b> - Bu yerda	<b>Hangi</b> - Qaysi
<b>Yapmak</b> - Qilmoq / bajarmoq	<b>Var</b> - Bor / mavjud

## DİL BİLGİSİ - GRAMMATIKA

### KISHILIK OLMOSHLARI

Ben ( <i>Men</i> )	Benim ( <i>Mening</i> )	Ben Ahmed. / Benim adım Ahmed
Sen ( <i>Sen</i> )	Senin ( <i>Senin</i> )	Sen Mustafa / Senin adın Mustafa
O ( <i>U</i> )	Onun ( <i>Uning</i> )	O Ayşe / Onun adı Ayşe
Biz ( <i>Biz</i> )	Bizim ( <i>Bizning</i> )	Biz Mehmet / Bizim kitapımız burada
Siz ( <i>Siz</i> )	Sizin ( <i>Sizning</i> )	Siz Ahmed / Sizin adınız Ahmed
Onlar ( <i>Ular</i> )	Onların ( <i>Ularning</i> )	Onlar burada / Onların kitabi burada

### ŞİMDİKİ ZAMAN FİİLİ – HOZİRGİ ZAMON FE’Lİ

Avvalgi darsda hozirgi zamon fe’li bilan qisqacha tanishgan edik. Ushbu darsda bu haqda batafsil o’rganamiz. Ma’lumki o’zbek tilida hozirgi zamonda gap tuzish uchun **Shaxs + buyruq fe’l + qo’shimcha** kabi tartibda tuziladi.

Masalan: Men borayapman (Men + bor+ayapman). Xuddi shu kabi, turk tilida ham ana shu ketma-ketlikda qo’yiladi. Masalan: Ben çalışıyorum (Ben + çalış+ıyorum) Ammo fe’l oxiridagi harfga ko’ra ba’zan qo’shimchalar harfi o’zgaradi.

<b>Ben</b> <u>fe’l</u> - iyorum	<i>Masalan:</i> Ben yapıyorum – Men bajaryapman
<b>Sen</b> <u>fe’l</u> - iyorsun	Sen ev’de yasıyorsun – Sen uyda yashayapsan
<b>O</b> <u>fe’l</u> - iyor	O kitap okuyor – U kitob o’qiyapti
<b>Biz</b> <u>fe’l</u> - iyoruz	Biz çalışıyoruz – Biz ishlayapmiz
<b>Siz</b> <u>fe’l</u> - iyorsunuz	Siz nerede çalışıyorsunuz – Siz qayerda ishlayapsiz
<b>Onlar</b> <u>fe’l</u> -iyorlar	Onlar burada ne yapıyorlar - Ular bu yerda nima qilyaptilar

Fe’l(ish-harakat) dagi oxirgi unli (oxirgi yoki oxirgidan avval kelgan unli) harflarga ko’ra qo’shimchani ilk harfi o’zgaradi

Masalan:



Yapmak – qilmoq. yap – qil => **Ben yap i yorum.**  
(**Y**ap - so'zida oxirgi unli a bo'lgani uchun **-iyor** qo'shiladi)

Gelmek – Kelmoq. gel – kel => **Ben gel i yorum**  
(**G**el - so'zida oxirgi unli e bo'lgani uchun **-iyor** qo'shiladi)

Okumak – o'qimoq. Oku – o'qi => **Ben oku yorum**  
(**O**ku – so'zida oxirgi harf u bo'lgani uchun **-uyor** qo'shiladi. Ammo ikkita unli ketma ket kelishi lozim bo'lsa ulardan biri o'qilmaydi)

### Qo'shimchalar

e, i = iyor (iyorum, iyorsun .... ) a, ı = ıyor (iyorum, iyorsun .... ) o, u = uyor (uyorum, uyorsun .... ) ö, ü = üyor (üyorum, üyorsun .... )	<i>Masalan</i> bekle-mek => bekliyor anla-mak => anlıyor otur-mak => oturuyor söyle-mek => söylüyor
--	---

### Turk tilida gap tuzish ketma-ketligi

**Ben şimdi ev'de iyi kitap okuyorum -**  
*Men hozir uyda yaxshi kitob o'qiyapman*

Kim + qachon + qayerda + nima + qilyapti



#### 1-MASHQ. Turk tiliga tarjima qiling

Sizning kitobingiz qayerda? Uning ismi nima. Uning ismi Ahmad

Mening kitobim qanday? Sening kitobing yaxshi? Bu sening kitobing.

Sening isming nima ? Men Ahmad. Mening ismim Ahmad. Sening kitobing qanday?

#### 2-MASHQ. So'zlarni to'g'ri joyalshtirib yozing.

1. kitap, ev'de, okuyor, şimdi, Mustafa,
2. şimdi, burada, onlar, ne yapıyorlar
3. şimdi, ben, yaşıyorum, Toşkent'de,
4. burada, var, ne, şimdi
5. Hangi, sen, yaşıyorsun, ev'de
6. Çalışıyorsunuz, burada, siz, nasıl
7. Ev'de, yaşıyorlar, onlar, hangi

#### 3- MASHQ. o'qing va tarjima qiling

- Merhaba

- Merhaba


- Nasıl sen (nasılsın) ?



- çok iyi. Sen şimdi burada ne yapıyorsun ?
- Ben kitap okuyorum
- Nasıl kitap okuyorsun ?
- Çok iyi kitap okuyorum.
- Sen nerede çalışıyorsun ?
- Ben fabrika'da çalışıyorum.
- Hangi fabrika'da çalışıyorsun ?
- "Tekstil"de çalışıyorum.

\*\*\* \*\*

- Günaydın
- İyi günler
- Senin adın ne ?
- Benim adım Mustafa.
- Sen şimdi nerede yaşıyorsun ?
- Ben ev'de yaşıyorum
- Senin ev nerede ?
- Benim ev Çilanzar'da
- Sen nerede çalışıyorsun ?
- Ben fabrika'da çalışıyorum
- Sen fabrika'da nasıl çalışıyorsun ?
- Ben çok çalışıyorum



## 3-DARS

### SÖZLÜK – LUG'AT.

So'zlarni o'qing va yodlang

<b>Oda</b> – xona	<b>Anlamak</b> – tushunmoq / anglamoq
<b>Gün</b> – kun	<b>Bilmek</b> – bilmoq
<b>Dil</b> – til	<b>Öğrenmek</b> – o'rganmoq
<b>Kaç</b> – necha / nechta	<b>Hafta</b> – hafta
<b>Bir</b> – bir	<b>Bana</b> – Menga
<b>İki</b> – ikki	<b>Ona</b> – Unga
<b>Üç</b> – uch	<b>Vermek</b> - bermoq
<b>Ne zaman</b> – qachon	<b>Ver</b> - ber

### DİL BİLGİSİ - GRAMMATIKA KO'PLIK QO'SHIMCHASI

Ko'plikni bildirish uchun –lar (ler) qo'shimchasi qo'shiladi.

Agar so'zdagi oxirgi unli harf (shu jumladan, oxirigidan bitta oldingi harf ham) jarangli yoki jarangsiz bo'lishiga qarab **-lar** yoki **-ler** qo'shiladi

1-Jarangli (qalin) unlilar: **Aa, Iı, Oo, Uu => lar**

2- Jarangsiz (yumshoq) unlilar: **Ee, İi, Öö, Üü => ler**

<i>Birlik</i>	<i>Ko'plik</i>
Gün	<b>Günler</b>
Dil	<b>Diller</b>
Telefon	<b>Telefonlar</b>
Kitap	<b>Kitaplar</b>
Oda	<b>Odalar</b>
Ne	<b>Neler</b>
Bu	<b>Bunlar</b>

*Masalan: Burada neler var? Burada çok kitaplar var. – Bu yerda nimalar bor? Bu yerda ko'p kitoblar bor*

### KO'RSATISH OLMOSHLARI

<b>Kim? – Kim?</b>	<b>Kimin? – Kimning?</b>	<b>Kime? – Kimga?</b>
<b>Ben</b>	<b>Benim</b> - <i>Mening</i>	<b>Bana</b> - <i>Menga</i>
<b>Sen</b>	<b>Senin</b> - <i>Sening</i>	<b>Sana</b> - <i>Senga</i>
<b>Siz</b>	<b>Sizin</b> - <i>Sizning</i>	<b>Siza</b> - <i>Sizga</i>
<b>O</b>	<b>Onun</b> - <i>Uning</i>	<b>Ona</b> - <i>Unga</i>
<b>Biz</b>	<b>Bizim</b> - <i>Bizning</i>	<b>Biza</b> - <i>Bizga</i>
<b>Onlar</b>	<b>Onların</b> - <i>Ularning</i>	<b>Onlara</b> - <i>Ularga</i>
<u>Ben</u> biliyorum – Men bilaman <u>O</u> türkça anliyor	<u>Benim</u> ev – mening uyim Bu kitap <u>Senin</u>	<u>Bana</u> ver – menga ber <u>Ona</u> söyle – unga ayt

### 1. MASHQ. O'qing va ona tilingizga tarjima qiling.

Benim adım Mehmet. Ben Taşkent'te yaşıyorum. Benim ev'de üç oda var. Bizim ev'de çok kitaplar var. Ben çok kitaplar okuyorum. Ben üç dil biliyorum. Rusça, özbekçe, ingilizçe biliyorum. Şimdi türkçe dil öğreniyorum. Ben şimdi ona kitaplar veriyorum. Bu benim kitap. Bana kitap ver.

Sen ne öğreniyorsun? Ben bu hafta türkçe öğreniyorum. Sen nerede türkçe öğreniyorsun. Ben ev'de öğreniyorum. Onlar ev'de kitap okuyorlar. O oda'da kitap okuyor. O şimdi nerede. O şimdi ev'de. Hangi ev'de? Bu ev'de. Ev'de kaç oda var. Bu ev'de üç oda var. Onlar burada ne yapıyorlar?

Biz bir hafta'da üç gün türkçe öğreniyoruz. Onlar ne zaman çalışıyorlar. Onlar bir hafta'da iki gün çalışıyorlar. Sen az çalışıyorsun. Çok çalış !. O türkça az biliyor. O şimdi az-az öğreniyor. O kaç dil biliyor. O üç dil biliyor. Hangi diller? Rusça, Özbekçe, İngilizçe biliyorum. Hangi dil iyi. İngilizçe iyi dil. Ben ingilizçe anliyorum.

O şimdi iki dil biliyor. Ben iyi anliyorum. Bu nasıl kitap. Sen nasıl kitap okuyorsun. Ben türkçe kitap okuyorum. Ben bu hafta Çilonzor'da yaşıyorum. Biz üniversite'de türkçe öğreniyoruz. Ben şimdi üç dil biliyorum. Sen hangi günler çalışıyorsun. Bunlar ne? Bunlar kitaplar. Bana kitap ver. Burada ne var? Ona çok kitaplar ver!

### 2. MASHQ. Tarjima qiling.

Men yashayapman - Ben yaşıyorum

Men o'rganayapman - .....  
Sen o'qiyapsan - .....  
Sen bilyapsan - .....  
U ishlayapti - .....  
U tushunyapti - .....  
U hozir ishlayapti .....  
Ular yaxshi tushunyaptilar .....

### **3. MASHQ – O'qing va yodlang**

*Mustafa:* Selamun alaykum, nasilsin?

*Erol:* Alaykum selam, Çok iyi.

*Mustafa:* Adın ne?

*Erol:* Adım Erol

*Mustafa:* Senin ev nereda?

*Erol:* Benim ev Taşkent'te

*Mustafa:* Senin ev'de kaç oda var?

*Erol:* Benim ev'de üç oda var.

*Mustafa:* Sen hafta'da kaç gün çalışıyorsun. ?

*Erol:-* Ben hafta'da iki gün çalışıyorum.

*Mustafa:* Sen şimdi ne öğreniyorsun ?

*Erol:* Ben şimdi türkçe öğreniyorum

\*\*\* \*\*

*Erol:* iyi günler. nasilsin ?

*Mustafa:* çok iyi.

*Erol:* Adın ne?

*Mustafa:* Adım Mustafa

*Erol:* Sen kaç dil biliyorsun?

*Mustafa:* Ben üç dil biliyorum

*Erol:* Hangi diller ?

*Mustafa:* İngilizçe, Türkçe, Rusça

*Erol:* Sen bugün ne okuyorsun ?

*Mustafa:* Ben bugün türkçe kitaplar okuyorum

*Erol:* Sen nerede çalışıyorsun ?

*Mustafa:* Ben Fabrika'da çalışıyorum.

### **4. MASHQ – türk tiliga tarjima qilib yozing**

1. Sen qayerda yashayapsan? 2. Sening uying qayerda? 3. Sening uyingda nechta xona bor? 4. Sen qaysi uyda yashaysan ? 5. Men yaxshi tushunayapman. 6. Men turkcha kam bilaman. 7. Bizning kitoblarimiz juda yaxshi. 8. Sen turkcha qanday o'rganyapsan?. Men ko'p turkcha kitoblar o'qiyman 9. Bu uyda ko'p xonalar bor. 10. Sen qaysi xonada yashayapsan? 11. Sen qachon kelayapsan? 12. Bu uyda nima bor?

### **5. MASHQ – Savollarga turk tilida javob bering**

- Siz kaç dil biliyorsunuz ?

- Hangi diller ?

- Siz şimdi neredede yaşıyorsunuz ?
- Sizin ev neredede ?
- Sizin ev'de kaç oda var ?
- Siz şimdi neredede okuyorsunuz ?
- Siz neredede çalışıyorsunuz ?
- Siz şimdi burada ne yapıyorsunuz ?
- Siz bugün ne öğreniyorsunuz ?

## 4-DARS

### SÖZLÜK – LUG'AT.

So'zlarni o'qing va yodlang

<b>Aile</b> - oila	<b>Öğrenci</b> – talaba/ o'quvchi
<b>Yaş</b> – yosh (umr)	<b>Dükkan</b> – do'kon
<b>Yaşında</b> - yoshda	<b>Satıcı</b> - sotuvchi
<b>Büyük</b> - katta	<b>Doktor</b> – do'xtir
<b>Baba</b> - ota	<b>Ucuz</b> - arzon
<b>Anne</b> - ona	<b>Şey</b> – narsa / buyum
<b>Kardeş</b> – birodar / aka-uka	<b>Her</b> - har
<b>Fiyat</b> - narx	<b>Her şey</b> – har narsa / hamma narsa

### DİL BİLGİSİ - GRAMMATIKA

O'zbek tilida biror narsani kimgadir tegishli ekanligini bildirish uchun egalik qo'shimchalari qo'shiladi, Masalan: Bu mening .... –im (Bu mening kitobim, Sening uying, uning xonasi) Ushbu darsimizda, turk tilida ana shunday so'zlar qanday yasalishini o'rganamiz. Masalan: **Bizim evimiz** – *Bizning uyimiz*

<b>Benim ... –im (-im, -m)</b>	<i>Masalan:</i>
<b>Senin .... –in (-in, -n)</b>	Benim ev <u>im</u> 'de üç oda var – <i>Mening uyimda uch xona bor</i>
<b>Onun .....-i (-i, -si)</b>	Senin yaş <u>ın</u> kaç'ta – <i>Senin yoshing nechada</i>
<b>Bizim .....-imiz (-ımız, -mız)</b>	Onun oda <u>şı</u> nasıl – <i>Uning uyi qanday</i>
<b>Sizin .... –iniz (-ınız, -nız)</b>	Bizim ev <u>imiz</u> çok büyük – <i>Bizning uyimiz juda katta</i>
<b>Onların ...-i (-i, -si)</b>	Kardeş <u>iniz</u> neredede – <i>Birodaringiz qayerda</i>
	Onların kitap <u>ı</u> burada – <i>Ularning kitobi bu yerda</i>

Qo'shimcha qo'shilayotgan so'zning harflariga ko'ra qo'shimchalar o'zgarishi mumkin. Bu, so'zdagi oxirgi unli (oxirgi undosh harfdan oldin kelgan unli) harfga bog'liq. Qalin va yumshoq unliga ko'ra o'zgaradi.

Qo'shimchalar:

<b>e, i</b> => -im, -in, -i, -ımız, -iniz, -i	<i>Masalan:</i>
<b>a, ı</b> => -ım, -ın, -ı, -ımız, -ınız, -ı	Kardeş- <b>ım</b> , Onun ev- <b>i</b>
<b>o, u</b> => -um, -un, -u, -umuz, -unuz, -u	Kitap- <b>ım</b> , Senin ad- <b>ın</b>
	Oyun- <b>um</b> , Bizim okul- <b>umuz</b>

<b>ö, ü =&gt; -üm, -ün, -ü, -ümüz, -ünüz, -ü</b>  <b>Unlidan keyin =&gt; -m, -n, -sı, -mız, -nız, -sı</b>  <i>Agar oxirgi harf -k bilan tugasa, u holda bu -ğ harfiga aylanadi.</i>	<b>Üzüm-üm , Benim otobüs-üm</b>  <b>Anne-m , Onun baba-sı</b> <b>Uçak =&gt; bizim uçağımız</b>  <b>Durak =&gt; Otobüs durağı</b>
---	--

Agar gapda kishilik olmoshi (Benim, Senin, Onun) mavjud bo'lsa, u holda qo'shimcha qo'shilmasligi ham mumkin. Masalan:

**Benim kitap = Benim kitapım** - *Mening kitobim.* Har ikki gapning ma'nosi bir xil.

### BILDIRISH QO'SHIMCHASI BILAN

Shu bilan birga bildirish qo'shimchasi (-da, -de) ham birga qo'shilishi mumkin.

Masalan:

Benim evim'de - *Mening uyimda.*

Senin evin'de – *Sening uyingda*

Ammo, Onun (*Uning*) yoki Onlarning (*Ularning*) olmoshlaridan keyin egalik (-im, -in, -i ... ) va bildirish ('da, 'de, 'te) qo'shimchasi kelsa o'rtada **-n-** harfi qo'shiladi.

Masalan:

(Onun evi) Onun evinde (Onun ev-i-**n**-de) – *Uning uyida*

(Onlarning odasi) Onlarning odasinda (Onlarning oda-sı-**n**-da) - *Ularning xonasida*

Annem senin evin'de ne yapıyor ? – *Onam sening uyingda nima qilyapti?*

Onlarning dükkanında her şey var – *Ularning do'konida hamma narsa bor*

### SAYILAR – SONLAR

0 - sıfır	10 – on	20 – yirmi
1- bir	11 – on bir	30 – otuz
2 – iki	12 – on iki	40 – kırk
3– üç	13 – on üç	50 – elli
4 – dört	14 – on dört	60 – altmış
5 – beş	15 – on beş	70 – yetmiş
6 – altı	16 – on altı	80 – seksen
7 – yedi	17– on yedi	90 – doksan
8 – sekiz	18 – on sekiz	100 – yüz
9 – dokuz	19 – on dokuz	1 000 – bin

38 – otuz sekiz

352 – üç yüz elli iki

2014 – iki bin on dört

#### 1. MASHQ – Quyidagi sanoq sonlarini turk tilida yozma shaklda yozing.

12, 15, 16, 18, 31, 45, 60, 99, 82, 256

#### 2. MASHQ – o'qing va o'z tilingizga tarjima qiling

Benim aile

Benim adım Mustafa. Benim yaş otuz'da Ben Toşkant'te yaşıyorum. Bizim ev çok büyük. Bizim ev'de beş oda var. Ev'de benim Babam, Annem ve iki kardeşim yaşıyoruz. Benim kardeşlerim öğrenciler. Onlar üniversite'de okuyorlar.

Benim babam dükkan'da satıcı. Annem doktor. Ben dükkan'da çalışıyorum. Ben hafta'da beş gün çalışıyorum. Bizim dükkan çok büyük. Benim dükkan'da her şey var. Benim dükkan'da her şey ucuz.

### 3. MASHQ – Yuqoridagi matn asosida savollarga javob bering.

Onun adı ne? Onun yaşı kaç? O nereda yaşıyor? Onun evi nasıl? Onun ev'de kaç oda var? Ev'da kimler yaşıyor? Onun kaç kardeşi var? Onun kardeşleri nereda okuyorlar? Onun babası nereda çalışıyor? Onun annesi kim? O haftada kaç gün çalışıyor? Onların dükkanı nasıl? Onun dükkan'da ne var? Dükkada fiyatlar nasıl.

### 4. MASHQ – Bo'sh o'rinlarga quyidagi so'zlardan keraklisini qo'ying.


(dükkan'da, yaş, evin'de, okuyor, kardeşin, baban, eviniz'de, dükkanın'da, ucuz, var)  
Masalan

0) Bizim ...dükkan'da... fiyatlar çok ucuz – *Bizning do'konda narxlar juda arzon*

- 1) Biz şimdi onların ..... yaşıyoruz.
- 2) Senin ..... kaç? benim ..... on beş'de.
- 3) Bu dükkan'da her şey .....
- 4) Babam senin ..... ne yapıyor
- 5) Sizin ..... kaç oda var
- 6) Senin ..... burada ne okuyor.
- 7) Onun babası nasıl kitap .....

### 5. MASHQ – So'zlarni tanlab gaplar tuzing.

*Masalan:* Onun evin'de şimdi neler var ? – *Uning uyida hozir nimalar bor?*



### 5. MASHQ – Turk tiliga tarjima qiling.

1. Sen hozir nima qilyapsan? 2. Mening uyimda har narsa bor. 3. Uning uyi juda katta.
4. Sizning otangiz qanday ? 5. Mening otam yaxshi. 6. Mening onamda yaxshi kitoblar bor.
7. Sening do'koningda nimalar bor. 8. Uning uyida nechta xona bor? 9. Bizning kitobimiz qayerda?
10. Sizning birodaringiz uyda kitob o'qiyapti.
11. Mening otam do'xtir. Otam hozir ishlayapti. 12. Sen bugun nima qilyapsan.

# 5-DARS

## SÖZLÜK – LUG’AT.

So’zlarni o’qing va yodlang

<b>Çocuk</b> – bola, farzand <b>istemek</b> – xohlamoq / istamoq <b>Ders</b> – dars <b>Kim</b> – kim <b>Siyah</b> - qora <b>Beyaz</b> – oq <b>ve</b> - va	<b>Araba</b> – moshina <b>Kapı</b> - eshik <b>Okul</b> - maktab <b>Pahalı</b> - qimmat <b>Değil</b> – emas (inkor qilish) <b>Sahib</b> – ega / egasi <b>Kimin</b> - Kimning
---	---

## DİL BİLGİSİ - GRAMMATIKA

Avvalgi darsda egalik qo’shimchalarini o’rgandik, ya’ni kitob-kitobim, uy-uying, xona-xonamiz va hokazo. Ushbu darsda o’rganadigan qoida ham xuddi shuning davomi, biror shaxs yoki buyumga tegishli narsa qanday aytilishini o’rganamiz, masalan: Ahmadning moshinasi (Ahmadga tegishli moshina), Uyning eshigi, Moshinaning egasi. va hokazo... Bunday so’zlar turk tilida quyidagicha tuziladi. Masalan: **Evin sahibi** – uyning egasi. **Odanning kapisi** – xonaning eshigi, **Mehmetin arabasi** – Mehmetning moshinasi

Qo’shimchalar

.....- <b>in</b> (-in, -un, -nin, -nun) ..... <b>i</b> (-i, -u, si, su) ...Ahmet- <b>in</b> ...ev- <b>i</b> ...Araba- <b>nin</b> ...kapı- <b>si</b>
---

E’tibor bersangiz qo’shimchalar so’zning oxirgi harfiga ko’ra o’zgarmoqda... Qaysi holda qanday qo’shimcha qo’shilishini quyidagi jadvaldan ko’rish mumkin:

Oxirgi harf quyidagi unlilar bilan tugasa <b>e, i</b> => ...-nin, ...-si <b>a, ı</b> => ...-nin, ...-si <b>o, u</b> => ...-nun, ...-su <b>ö, ü</b> => ...-nün, ...-sü	Agar unlidan keyin undosh harf kelsa: <b>e, i</b> (+undosh) => ...-in, ...-i <b>a, ı</b> (+undosh) => ...-ın, ...-ı <b>o, u</b> (+undosh) => ...-un, ...-u <b>ö, ü</b> (+undosh) => ...-ün, ...-ü
<i>Masalan</i> Kardeşimin <b>annesi</b> – birodarimning onasi Mustafanın <b>ailesi</b> – Mustafaning oilasi Odanning <b>kapisi</b> – Xonaning eshigi Mahmütün komşusu – Mahmudning qo’shnisi Komşunun <b>arabaları</b> – qo’shnining moshinalari	<i>Masalan</i> evin <b>sahibi</b> - uyning egasi Hasanın <b>evi</b> - Hasanning uyi Mahmutun <b>dersi</b> – Mahmudning darsi Otobüsün <b>şoförü</b> – Avtobusning haydovchisi Odanning <b>kapisi</b> – xonaning eshigi



Agar oxirgi harf **-k** bilan tugasa, u holda bu **-ğ** harfiga aylanadi. Masalan:  
(Yemek) Onun yemeği – *uning ovqati*, (çocuk) Ahmetin çocuğu – *Ahmetning bolasi*

### 1. MASHQ – o'z tilingizga tarjima qiling.

1. Bu evin sahibi kim? 2. Bu kitap Mustafanın 3. Bu arkadaşımın arabası.
4. Burada Hasanın dükkanı var. 5. Ahmetin evi nerede, onun evi burada.
6. Benim arabamın kapısı nasıl? Senin arabanın kapısı siyah
7. Bu arabanın sahibi kim? Arabanın sahibi ben. 8. Bu araba iyi değil. 9. Bu dükkan'da kitaplar pahalı değil, çok ucuz. 10. O kim? O doktor değil, O satıcı.
11. Ahmetin arabası siyah. 12. Evin sahibi şimdi burada.

### 2. MASHQ – So'zlardan mosini ketma-ket joylab 7 ta gap tuzing

Masalan: Babamın siyah arabası nerede?

Mustafa Ahmet Kardeşim Doktor Babam	-in -in -un -nın -nin -nun	büyük siyah beyaz ucuz pahalı çok az	araba kitap ev oda kardeş dükkan	-i -i -u -sı -si -su	var burada nerede?
---	---	--	---	-------------------------------------	--------------------------

### 3. MASHQ – O'qing va turk tilida gapirib bering.

#### Onun kardeşi

Onun adı Hasan. Hasan şimdi kırk yaşında. O şimdi Antalya'da yaşıyor. O şimdi dükkan'da satıcı. Onun iki çocuğu var. Onların adı Ahmet ve Ali. Çocuklar okulda okuyorlar. Onlar dil öğreniyorlar. Her gün kitaplar okuyorlar. Ali rusça öğrenmek istiyor. Onda çok rusça kitaplar var. Alinin babası rusça iyi biliyor.

#### Benim kardeşim

Benim adım Mehmet. Bizim aile çok büyük değil. Ev'de: babam, annem, iki kardeşim ve Ben yaşıyoruz. Benim büyük kardeşim'in adı Mustafa. Onun yaşı 28'de. O üniversite'de öğrenci. O ingilizce öğrenmek istiyor. Benim babam şimdi Rusya'da fabrika'da çalışıyor. O fabrika'nın sahibi. Rusya'da bizim evimiz var. Evimiz büyük değil. Ev'de üç oda var. Babamın beyaz arabası var.

### 4. MASHQ – yuqoridagi matn asosida savollarga javob bering.

1. Hasan şimdi nerede yaşıyor?
2. Hasan nerede çalışıyor / Ne yapıyor?
3. Hasanın kaç çocuğu var? Onların adı ne?
4. Hasanın çocukları nerede okuyorlar?
5. Mehmetin ailesinde kimler var?
6. Mehmetin kardeşi kaç yaşında?
7. Mehmetin babası ne yapıyor?
8. Mehmetin babasında nasıl araba var?

## 5. MASHQ – turk tiliga tarjima qiling.

1. Bu do'konda narxlar qimmat emas. 2. Do'xtirning moshinasi qora emas. 3. U hozir bu yerda emas. 4. U hozir talaba. 5. Bolalar maktabda dars o'rganyaptilar. 6. Sen qaysi maktabda o'qiyapsan. 7. Unga kitob ber. 8. Mening birodarim (akam) haftada uch kun turkcha o'rganyapti. 9. Bu do'konda har narsa bor. 10. Menga turkcha kitob ber.

# 6-DARS

## SÖZLÜK – LUG'AT.

So'zlarni o'qing va yodlang

<b>Var</b> – Bor / mavjud	<b>Lazım</b> – kerak / lozim
<b>Yok</b> – Yo'q / mavjud emas	<b>Yeşil</b> – yashil (rang)
<b>Evet</b> – Ha / Shunday	<b>Mavi</b> – ko'k (rang)
<b>Hayır</b> - yo'q / unday emas	<b>Çay</b> - choy
<b>Gömlek</b> – ko'ylak	<b>Küçük</b> - kichik
<b>Renk</b> - rang	<b>Tane</b> - dona
<b>Pantolon</b> - shim	<b>Otobüs</b> - avtobus

## DİL BİLGİSİ – GRAMMATIKA

### SORU EKİ - SO'ROQ QO'SHIMCHASI

Turk tilida so'roq qo'shimchalari mi? (mi, mu, mü) yordamida yasaladi. Masalan:

**Bu araba mi?** – Bu moshinami? **Burda kitap var mi?** – Bu yerda kitob bormi?

Turk tilida so'roq qo'shimchasi alohida yoziladi, ya'ni so'zga qo'shilmagan holda yoziladi. So'roq qo'shimchalari o'zidan avvalgi so'zning harfiga qarab o'zgaradi. Ya'ni qaysi holda **mi**?, qaysi holda **mu**? Bo'lishini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin

<i>Oxirgi yoki oxirgidan avval kelgan unli harf quyidagilar bo'lsa:</i> <b>e , i</b> => mi ? <b>a , ı</b> => mi? <b>o , u</b> => mu? <b>ö , ü</b> => mü?	<i>Masalan:</i> Bu araba yeşil <u>mi</u> ? Sana lazım <u>mi</u> ? Ev'de kitaplar çok <u>mu</u> ? Bu Otobüs <u>mü</u> ?
--	--

Turk tilida savol berish, Senda ..... bormi? yoki Sening .... -ng bormi? deb so'rash quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi. Masalan:

**Sende araba var mi?** – Senda moshina bormi?

**Senin araban var mi?** – Sening moshinang bormi?

**Onda ev var mi?** – Unda uy bormi?

**Onun evi var mi?** – Uning uyi bormi?

Bunda tashqari, savol berishning turli ko'rinishlari mavjud, Masalan:

**Sana lazım mi?** – Senga kerakmi?

**Sana kitap lazım mi?** - Senga kitob kerakmi?

**Burada ne var ?** - Bu yerda nima bor?

**Burada çay var mı?** - Bu yerda choy bormi?  
**Bu iyi mi?** – Bu yaxshimi?  
**Bu ev büyük mü?** – Bu uy kattami?  
**Senin araban yeşil mi?** – Sening moshinang yashilmi  
**Bu araba yeşil değil mi?** – Bu moshina yashil emasmi?  
**O iyi değil mi?** – U yaxshi emasmi?

<b>EVET</b> ( <i>Ha</i> ) <b>HAYIR</b> ( <i>Yo'q, unday emas</i> ) <b>DEĞİL</b> ( <i>emas</i> ) - Bu ev mi ? - Evet, bu ev. - Bu araba mı ? - Hayır, bu araba değil. Bu otobüs	<b>VAR</b> ( <i>bor, mavjud</i> ) <b>YOK</b> ( <i>yo'q, mavjud emas</i> ) - Ev'de araba var mı ? - Ev'de araba yok. - Sizde ne var ? - Bende her şey var.
---	--

Savol berishda yordamchi kishilik olmoshlari

<b>Kim?</b> – <i>Kim?</i>	<b>Kimde ?</b> – <i>Kimda?</i>	<b>Kime?</b> – <i>Kimga?</i>
<b>Ben</b>	<b>Bende</b> - <i>Menda</i>	<b>Bana</b> - <i>Menga</i>
<b>Sen</b>	<b>Sende</b> - <i>Senda</i>	<b>Sana</b> - <i>Senga</i>
<b>Siz</b>	<b>Sizde</b> - <i>Sizda</i>	<b>Siza</b> - <i>Sizga</i>
<b>O</b>	<b>Onda</b> - <i>Unda</i>	<b>Ona</b> - <i>Unga</i>
<b>Biz</b>	<b>Bizde</b> - <i>Bizda</i>	<b>Biza</b> - <i>Bizga</i>
<b>Onlar</b>	<b>Onlarda</b> - <i>Ulardag</i>	<b>Onlara</b> - <i>Ularga</i>
<u>Ben</u> biliyorum – Men bilaman <u>O</u> türkça anliyor	<u>Bende</u> ev var – menda uy bor Onda ne var?	<u>Bana</u> lazım – menga kerak <u>Ona</u> ver – unga ber

## RENKLER - RANGLAR

<b>Siyah</b> - qora,	<b>Beyaz</b> - oq,	<b>Yeşil</b> - yashil,	<b>Mavi</b> - ko'k,
<b>Kırmızı</b> - qizil,	<b>Sarı</b> - sariq,	<b>Kahverengi</b> - jigarrang	

### 1. MASHQ – o'z tilingizga tarjima qiling.

1. Bu çocuk'da kitaplar var mı? Evet var.
2. Sende araba var mı? Evet, Bende iki tane araba var.
3. Onda beyaz gömlek var mı? Hayır, onda gömlek yok,
4. Senin siyah gömleğin var mı? Hayır, Benim siyah gömleğim yok.
5. Nerede büyük dükkan var?
6. Burada küçük dükkan var mı? Hayır. Burada dükkan yok.
7. Sizde çay var mı? Evet var. - Bize iki tane çay lazım.
8. Sizin dükkanda gömlekler var mı? Evet, var. - Bana üç tane gömlek lazım.
9. Size çay lazım mı? Hayır. Şimdi lazım değil.
10. Onlara kitap lazım mı? Evet, onlara kitap lazım.
11. Size ne lazım? Bize dört tane çay lazım
12. Kime çay lazım? Bize çay lazım

### 2. MASHQ – Quyidagilardan kerakli so'zlarni qo'yib gap tuzing.

(büyük, küçük, iyi, çok, az, pahalı, ucuz, siyah, beyaz, kırmızı)

-Bu kitap mı? -Evet, ..... -Bu nasıl ..... - .....	- Bu gömlek mi? - Hayır..... - Bu nasıl ..... - Bu .....
- Dükkada pantolonlar çok mu? - Hayır, ..... - Kaç tane ..... - .....	- Bu araba ucuz mu ? - Hayır ..... - Hangi ..... - Burada ucuz araba yok
- Bu pantolon ..... mı? - Hayır .....	- Bu ..... iyi değilmi - Evet .....
- Bugün dükkada fiyatlar .....? - Hayır .....	- Şimdi O çocuk öğrenci mi ? - Hayır ..... O çalışıyor.

### 3. MASHQ – So'zlardan mosini ketma-ket joylab 7 ta savol tuzing va tarjima qiling.

Masalan: Babamın arabası var mı ?

Mustafa Ahmet Kardeşim Doktor Babam	-in -in -un -nın -nin -nun	araba pantolon çay otobüs kardeş dükkan çocuklar	-i -i -u -sı -si -su	var burada ev'de oda'da	mı ? mi ? mu ? mü ?
---	---	--	-------------------------------------	----------------------------------	------------------------------

### 4. MASHQ – Dialogni yodlang.

- Merhaba. Size ne lazım?
- Bana bir gömlek lazım
- Hangi renk istiyorsunuz?
- Beyaz renk istiyorum
- Bizde şimdi beyaz gömlekler yok. Siyah ve mavi gömleklerimiz var.
- Bana siyah gömlek lazım değil. Sizde kırmızı var mı?
- Evet, kırmızı gömlek var

### 5. MASHQ – Turk tiliga tarjima qiling.

1. Bu sening moshinangmi? Ha, bu mening moshinam
2. U sening otangmi ? Ha u mening otam
3. Bu moshinaning eshigimi? Ha bu moshinaning eshigi
4. Uyning eshigi sariqmi? Yo'q uyning eshigi sariq emas. Eshik qizil
5. Mustafaning xonasi kattami ? Yo'q katta emas, uning xonasi kichik.
6. Bu kitoblar arzonmi? Yo'q kitoblar arzon emas. Ular bugun juda qimmat
7. U hozir qayerda? U hozir uydami? Ha u uyda
8. Ahmetning uyi bormi ? Ha bor.
9. Birodarim (akam)ning moshinasi bu yerdami? Ha moshina hozir bu yerda
10. Bolalarning maktabi bu yerdami? Yo'q bu yerda emas.
11. Bu bola o'quvchimi ? Yo'q u o'quvchi emas.

12. U do'xtirmi ? Yo'q u do'xtir emas, U sotuvchi  
 13. Sizga choy kerakmi ? Ha kerak  
 14. Sizga qora ko'ylak kerakmi ? Yo'q kerak emas.  
 15. Bu qaysi do'kon? - Bu Mustafaning do'koni.

## 7-DARS

### SÖZLÜK – LUG'AT.

So'zlarni o'qing va yodlang

<b>Almak</b> - Olmoq	<b>Ay</b> – oy
<b>Gelmek</b> - Kelmoq	<b>Dün</b> – kecha / kechagi kun
<b>Temizlemek</b> - Tozalamoq	<b>Saat</b> - soat
<b>Yikamak</b> - yuvmoq	<b>Beklemek</b> - kutmoq
<b>Her şey</b> – har narsa	<b>Akşam</b> – oqshom / kechki payt
<b>Önce</b> - avval / ilgari	<b>Sabah</b> - Ertalab

### DİL BİLGİSİ – GRAMMATIKA

#### Geçmiş zaman - O'tgan zamon fe'li

O'zbek tilida o'tgan zamondagi ish harakatni ifodalash uchun buyruq fe'lga “-dim, -ding, -dik” qo'shimchalari qo'shiladi. Masalan:

Kelmoq => Men kel-dim, ishlamoq => Sen ishla-ding, O'qimoq=>Biz o'qi-dik.

Turk tilida esa o'tgan zamon quyidagicha ifodalanadi. Masalan:

**Gelmek** – Kelmoq => **Ben geldim** – Men keldim

**Okumak** – O'qimoq => **Sen okudun** – Sen o'qiding

Kishilik olmoshi (Men, Sen, u )ga ko'ra qo'shimchalar o'zgaradi.

<b>Ben</b> <u>fe'l</u> - <b>dim (dum)</b>	<i>Masalan:</i> Ben ver <u>dim</u> – Men berdim
<b>Sen</b> <u>fe'l</u> - <b>din (dun)</b>	Sen ev'de yaşa <u>dın</u> – Sen uyda yashading
<b>O</b> <u>fe'l</u> - <b>di (du)</b>	O kitap oku <u>du</u> – U kitob o'qidi
<b>Biz</b> <u>fe'l</u> - <b>dik (duk)</b>	Biz çok çalış <u>tık</u> – Biz ko'p ishladik
<b>Siz</b> <u>fe'l</u> - <b>diniz (dunuz)</b>	Siz nerede çalış <u>tınız</u> – Siz qayerda ishladingiz
<b>Onlar</b> <u>fe'l</u> - <b>diler (dular)</b>	Onlar dün gel <u>diler</u> - Ular kecha keldilar

Fe'l(ish-harakat) dagi oxirgi unli (oxirgi yoki oxirgidan avval kelgan unli) harflarga ko'ra qo'shimcha harfi o'zgaradi

<b>e, i</b> => - i	Ben ver <u>dim</u> , Sen gel <u>din</u> , O Girdi
<b>a, ı</b> => - ı	Ben ald <u>ım</u> , Sen yaşa <u>dın</u> , O tanı <u>dı</u>
<b>o, u</b> => - u	Ben oku <u>dum</u> , Sen otu <u>rdu</u> n, O oku <u>du</u>
<b>ö, ü</b> => - ü	Ben gö <u>rdüm</u> , Sen gü <u>ldün</u> , O gö <u>rdü</u>
<i>So'zdagi faqat oxirgi harf jarangli undosh</i>	

<i>bo'lsa -d- harfi -t- harfiga aylanadi</i> <b>f, s, t, k, ç, ş, h, p =&gt; - t</b>	Ben çalış <u>tım</u> , Sen yapt <u>ın</u> , O gitt <u>i</u> , Ben çay içtim – Men choy ichdim
---	--

### ANIQLOVCHI

Aniqlovchi qo'shimchasi ish harakatni aniq bir narsa ustida bo'lganini bildiradi. Turk tilida aniqlash qo'shimchasi sifatida **-i, -yi**, kabi qo'shimchalar qo'shiladi. Bu qo'shimcha o'zbek tilidagi “-ni” qo'shimchasiga mos keladi. Masalan:

Ben kitap aldım – Men kitob oldim  
Ben kitapı aldım – Men kitobni oldim  
O araba verdi – U moshina berdi  
O arabayı verdi – U moshinani berdi

Qo'shimchalar:

<i>Oxirgi harf undosh bo'lib, undan avval quyidagi unli bo'lsa:</i> <b>e, i</b> (+undosh) => -i <b>a, ı</b> (+undosh) => -ı <b>o, u</b> (+undosh) => -u <b>ö, ü</b> (+undosh) => -ü  <i>Masalan:</i> <b>Evi</b> temizle – uyni tozala <b>Kitapı</b> al – kitobni ol <b>Karpuzu</b> ver – tarvuzni ber <b>Otobüsü</b> bekle – Avtobusni kut  <i>Agar oxirgi harf -k bilan tugasa, u holda bu -ğ harfiga aylanadi.</i>	<i>Oxirgi harf unli bo'lsa</i> <b>e, i</b> => -yi, <b>a, ı</b> => -yı <b>o, u</b> => -yu <b>ö, ü</b> => -yü  <i>Masalan:</i> <b>Arabayı</b> temizle – moshinani tozala <b>Kapıyı</b> kapat – eshikni och <b>Kutu<u>yu</u></b> aç – qutini och.  (yemek) yeme <u>ği</u> ye – ovqatni ye
--	---

### 1. MASHQ – o'z tilingizga tarjima qiling.

1. Ben kitap verdim.
2. Ben ona kitap verdim
3. Ben dün ona kitap verdim
4. Ben dün size iyi kitaplar verdim.
5. O burada beni bekledi
6. Ahmet bugün yeşil otobüsü bekledi
7. Sen iyi kitap aldın
8. Sen bu kitabı aldın
9. Benim kitabımı kim aldı ?
10. Bu arabayı bana ver.
11. Ben iki saat önce burada otobüs bekledim
12. Biz dün sabah geldik
13. Onlar bu ev'de beş ay yaşadılar
14. Benim arkadaşım bu evi temizledi
15. Sen bu arabayı yıka

## 2. MASHQ – Quyidagi soʻzlardan foydalanib gaplarni oʻtgan zamonga aylantiring.

(Şimdi, Bugün, Dün, Önce, Bir hafta önce, Bir ay önce)

<b>Yaşamak</b> - Ben <u>şimdi</u> ev’de yaşıyorum - Ben <u>iki ay önce</u> evde <u>yaşadım</u>	<b>Yapmak</b> - O şimdi çok büyük ev yapıyor - O önce .....
<b>Okumak</b> Sen bugün az ders <u>okuyorsun</u> Sen dün .....	<b>Beklemek</b> - Şimdi burada otobüs bekliyorum. - Bir hafta önce .....
<b>Çalışmak</b> Siz bugün nerede <u>çalışıyorsunuz</u> Siz .....	<b>Temizlemek</b> - Biz bu hafta odayı temizliyoruz - Biz .....
<b>Gelmek</b> Ahmet bugün geliyor. Ahmet .....	<b>Almak</b> Mustafa şimdi beyaz gömlek alıyor .....

## 3. MASHQ – Oʻz tilingizga tarjima qiling.

1. Men bugun uyda koʻp ishladim. 2. Kecha men koʻp kitoblar oʻqidim. 3. Men uch kun oldin keldim. 4. U yaxshi angladi. 5. U hozir tushundi. 6. Mustafa ikki kun oldin keldi. 7. Biz bu yerda bir soat kutdik. 8. Sen nima oʻqiding. 9. Biz bugun koʻp oʻrgandik. 10. Ular bu hafta keldilar. 11. Men doʻkonda ishladim. 12. Men olti oy oldin katta doʻkonda ishladim. 13. Ahmet bir hafta oldin bu moshinani tozaladi. 14. Ular kecha ertalab keldilar. 15. Men bir oy oldin bir dona shim va ikki koʻylak oldim.

## 4. MASHQ – aniqlovchi qoʻshimchasi bilan yozing

*Masalan:*

Ben ev temizledim (*Men uy tozaladim*) – Ben bu evi temizledim (*Men bu uyni tozaladim*)

1. Ben kitap okudum. Ben bu .....
2. Sen araba yıkadın. Sen bu .....
3. O dün otobüs bekledi. O dün .....
4. Biz ev aldık. Biz bu .....
5. Siz gömlek yıkadınız. Siz bu .....
6. Onlar bana kitap verdiler. Onlar bana .....

## 5. MASHQ – Takrorlash. Quyidagi soʻzlar yordamida savol javob qiling.

(araba, baba, kardeş, anne, ev, kitap, çay, gömlek, çocuk, oda)

*Masalan*

- O senin baban mı? – Evet, O benim babam.
- O Senin kardeşin mi ? - Hayır, O benim karderşim değil.
- Bu Mustafanın arabası mı ? –Evet.....



# 8-DARS

## SÖZLÜK – LUG’AT.

So’zlarni o’qing va yodlang

<b>Ne kadar</b> - Qancha <b>Geçen</b> – o’tgan <b>Sene</b> - yil <b>Güzel</b> - chiroyli <b>Şehir</b> - shahar <b>Kilometre</b> - kilometr	<b>Gitmek</b> – bormoq / ketmoq <b>Gidiyor</b> - boryapti <b>Kadar</b> - ...-gacha / -ga qadar <b>pazar</b> - bozor <b>uzak</b> - uzoq <b>yakın</b> - yaqin
---	--

## DİL BİLGİSİ – GRAMMATIKA

### NEREDEN? - QAYERDAN?

O’zbek tilidagi “-dan” qo’shimchasi Turk tilida “-**dan**, **-den**” yoziladi. Masalan:

**Okuldan** – Maktabdan, **Evdan** - Uydan,

**İstanbuldan geliyorum** – istanbuldan kelyapman

Bunda qo’shimcha so’zning unli harfiga ko’ra **-dan / -den** yoziladi.

<b>a, i, o, u</b> => -dan <b>e, i, ö, ü</b> => -den  <i>So’zdagi faqat oxirgi harf jarangli undosh bo’lsa -d- harfi -t- harfiga aylanadi</i> <b>f, s, t, k, ç, ş, h, p</b> => -t	<b>Okuldan, dükkandan, Buradan</b> <b>Evdan, Kardeşimden, Nereden</b>  <b>Taşkentten, uzaktan, bu taraftan</b>
--	---

### NEREYE? - QAYERGA?

O’zbek tilidagi “-ga” qo’shimchasi Turk tilida “-**a**, **-ya**, **-e**, **-ye**” yoziladi. Masalan:

**Okul’a** – Maktabga, **Ev’e** - Uyga,

**İstanbul’a gidiyorum** – istanbulga boryapman

Qo’shimchanning o’zgarishi:

<i>Oxirgi harf undosh bo’lib, undan avval quyidagi unlilar bo’lsa:</i> <b>a, i, o, u</b> (+undosh) => <b>’a</b> <b>e, i, ö, ü</b> (+undosh) => <b>’e</b>  <b>Unlidan keyin</b> => <b>’ya / ’ye</b>	<i>Masalan:</i> <b>Okul’a git – Maktabga bor</b> <b>Taşkent’e geldim – Toshkentga keldim</b>  <b>Türkiye’ye gittim - turkiyaga bordim</b>
--	---

Ba’zan “-**a**, **-ya**, **-e**, **-ye**” qo’shimchalaridan oldin “-’-” (ayrish belgisi) ham qo’yiladi

**Okula** = **Okul’a** - Maktabga

**Arabaya** = **araba’ya** - Moshinaga

Har ikkisi ham bir xildir, Bularning farqi yo’q.

### 1. MASHQ – Tarjima qiling.

1. Ben şimdi ev'e geliyorum.
2. Sen şimdi okuldan eve geliyorsun
3. O dün evden üniversite'ye gitti
4. Evden pazara kadar kaç kilometre ?
5. Buradan senin evin'e kadar kaç kilometre
6. Taşkentten Semerkand'a kadar uzak mı? Hayır uzak değil.
7. Bu kitabı Mustafa'ya ver.
8. Bu gömleği kime verdin. Bu gömleği satıcı'ya verdim
9. Siz dün nereye gittiniz ? Biz dün pazar'a gittik.
10. Onlar nereden geliyorlar? Onlar pazardan geliyorlar
12. Ben şimdi ev'den dükkan'a gidiyorum.
13. İstanbuldan Taşkent'e ne kadar uzak ?
14. Bu arabanın fiyatı ne kadar? Bunun fiyatı iki bin dolar (\$).
15. Bu pantolon ne kadar? Bu pantolon 500 sum

### 2. MASHQ – So'zlarni ketma-ket joylab 5 ta gap tuzing

Ben Sen O Biz Siz Onlar Ahmet Ayşe	⇒	Dün İki gün önce İki hafta önce Dün akşam Sabah Geçen sene Geçen ay	ev dükkan Pazar İstanbul Taşkent Okul Buhara	-dan -den -tan -ten	gel	-dim -din -di -dik -diniz -diler
---	---	---	--	------------------------------	-----	---

### 3. MASHQ – o'qing va 3-shaxs nomidan gapirib bering.

(Masalan: Onun adi Tarkan. Onun ailsı.....)

#### Bizim aile

Benim adım Tarkan. Bizim aile büyük değil. Bizim aile'de beş kişi var. Biz istanbul'da yaşıyoruz. Benim iki kardeşim var. Benim büyük kardeşim'in adı Hasan. Onun yaşı 28'de. O beş sene önce üniversite'de okudu. Sonra rusça dil öğrendi. Hasan şimdi Rusya'da fabrika'da çalışıyor. O fabrika'nın sahibi. Benim küçük kardeşim'in adı Ahmet. O şimdi üniversite'de öğrenci. Biz geçen sene istanbul'dan Taşkent'e geldik. Biz her sene taşkent'e geliyoruz. Taşkent çok güzel ve büyük şehir.

### 4. MASHQ – savollarga javob bering

1. Buradan sizin eviniz'e kadar kaç kilometre ?
2. Sizin evden bura'ya kadar uzak mı?
3. Sizin evden pazar'a kadar yakın mı?
4. Siz evden saat kaç'ta bura'ya geliyorsunuz?
5. Taşkent'ten buhara'ya kadar kaç kilometre ?
6. Özbekistanın hangi şehri büyük?
7. Siz her gün ev'den nasıl geliyorsunuz ?
8. Sizin kardeşiniz var mı ?

# 9-DARS

## SÖZLÜK – LUG'AT.

So'zlarni o'qing va yodlang

<b>Ama</b> - Ammo	<b>Teşekkür ederim</b> - rahmat
<b>Söylemek</b> - aytmoq	<b>Arkadaş</b> – do'st, og'ayni
<b>Duyamak</b> - eshitmoq	<b>Yeni</b> - yangi
<b>Geçen</b> – o'tgan	<b>Satın almak</b> – sotib olmoq, xarid qilish
<b>Çanta</b> - sumka, xalta	<b>Durak</b> - bekat, avtobus bekat

## DİL BİLGİSİ – GRAMMATIKA

### O'tgan zamondagi fe'lining xabar shakli

Turk tilida o'tgan zamoni ifodalashni yana bir ko'rinishi mavjud. Bunda “-miş” qo'shimchasi ishlatiladi. Masalan:

**Onlar gelmişler** – Ular keliptilar

**Sen yapmışsın** – Sen qilipsan

Buning oddiy o'tgan zamondan farqini ushbu misoldan bilib olish mumkin:

O geldi – U keldi.

O gelmiş - U kelipti.

O'tgan zamon fe'lining bunday shakli odatda biror voqea yoki xabarni aytishda ishlatiladi.

**Mustafa dün istanbula gitti** – Mustafoga kecha istanbulga ketdi (*oddiy o'tgan voqea*)

**Mustafa dün istanbula gitmiş** - Mustafoga kecha istanbulga ketipti / ketgan ekan (*xabar*)

Kishilik olmoshi (Men, Sen, u )ga ko'ra qo'shimchalar o'zgaradi.

<b>Ben</b> <u>fe'l</u> - <b>mişim (muşum)</b>	<i>Masalan:</i>
<b>Sen</b> <u>fe'l</u> - <b>mişsin (muşsun)</b>	Ben okumuşum – <i>Men o'qipman (o'qiganman)</i>
<b>O</b> <u>fe'l</u> - <b>miş (muş)</b>	Sen dün gelmişsin – <i>Sen kecha kelipsiz</i>
<b>Biz</b> <u>fe'l</u> - <b>mişiz (muşuz)</b>	O gitmiş – <i>U ketipti (ketgan ekan)</i>
<b>Siz</b> <u>fe'l</u> - <b>mişsiniz (muşsunuz)</b>	Biz almışız – <i>Biz alipmiz (olganmiz)</i>
<b>Onlar</b> <u>fe'l</u> - <b>mişler (muşlar)</b>	Siz görmüşsünüz – <i>Siz ko'ripsiz</i>
	Onlar okumuşlar - <i>Ular o'qishipty (o'qigan)</i>

Fe'l(ish-harakat) dagi oxirgi unli (oxirgi yoki oxirgidan avval kelgan unli) harflarga ko'ra qo'shimcha harfi o'zgaradi

<i>Fe'ldagi oxirgi yoki oxirgidan avval kelgan harf quyidagi unliharflar bo'lsa</i>	
<b>e, i</b> => - i (miş, mişin, mişiz...)	Ben <b>vermişim</b> , Sen <b>gelmişsin</b> , O <b>Girmiş</b>
<b>a, ı</b> => - ı (miş, mişin, mişiz...)	Ben <b>almışım</b> , Sen <b>yaşamışsın</b> , O <b>tanımış</b>
<b>o, u</b> => - u (muş, muşun, muşuz...)	Ben <b>okumuşum</b> , Sen <b>oturmuşsun</b> , O <b>okumuş</b>
<b>ö, ü</b> => - ü (müş, müşün, müşüz...)	Ben <b>görmüşüm</b> , Sen <b>gülmüşsün</b> , O <b>görmüş</b>

### 1. MASHQ – Tarjima qiling.

1. O bana söyledi, bugün Ahmet gelmiş.
2. Ben dün duydum, benim arkadaşım istanbuldan gelmiş
3. Babam bana söyledi, geçen hafta arkadaşım Taşkent'e gelmiş
4. Onlar bu kitabı okumuşlar.
5. Bir saat önce sen evi temizlemişsin, Sana teşekkür ederim
6. Dün akşam arkadaşım beni çok beklemiş
7. O dün durak'ta bir saat otobüs beklemiş.
8. Ahmet ve Ali pazara gitmişler.
9. Mustafa ve Ahmet pazardan çok iyi kitaplar almışlar
10. Arkadaşım dün pazardan yeni çanta almış.
11. Arkadaşım nasıl araba satın almış ? – O yeni araba almış
12. O ne zaman araba satın aldı? – O geçen hafta satın almış
13. Ahmetin yeni arabası var mı? Hayır, Onun arabası yok
14. Arkadaşımın arabası var mı ? Evet, var, ama onun arabası yeni değil
15. Dükkanda kırmızı çanta var mı? Kırmızı yok, ama siyah çanta var

### 2. MASHQ – Mos fe'lni qo'yib to'ldiring

- Ahmet dün pazara .....
- Mustafa geçen hafta istanbuldan .....
- Onlar bu kitabı .....
- Arkadaşım bu odayı .....
- Kardeşim dükkandan yeni çanta .....
- Onlar dün durak'ta otobüs .....
- Ahmet ve Ali geçen hafta pazardan yeni araba .....
- Çocuklar dün ders .....
- Benim babam iki sene önce bu ev'de .....
- Arkadaşım geçen sene bu fabrika'da .....
- O önce durak'ta bir saat otobüs .....
- Benim arkadaşım dükkandan yeni pantolon .....

### 3. MASHQ – O'qing va turk tilida gapirib bering

Toshkent katta shahar. Toshkentda ko'p bozor va do'konlar bor. Mening uyim Toshkentda. Uyimiz bozorga yaqin. Uyimizda uch xona bor. Hozir uyimni tozalayapman. Ikki soat oldin do'stimni uyidan keldim. Do'stim istabulga ketyapti. U har yili istanbulga boryapti. Istanbul Toshkentdan juda uzoq.

### 4. MASHQ – dialogni yodlang

- Bir şey duydum...
- Ne duydun?
- Ahmet bana bir şey söyledi
- Ne söyledi?
- Bizim arkadaş uzak şehirden gelmiş
- Çok iyi. Ne zaman gelmiş?
- geçen hafta gelmiş.

# 10-DARS

## SÖZLÜK – LUG’AT.




So’zlarni o’qing va yodlang

<b>Yarın</b> - ertaga <b>Sonra</b> – keyin / so’ngra <b>Satmak</b> - sotmoq <b>Para</b> - pul <b>Kaç para</b> – necha pul <b>Pardon</b> - kechirasiz <b>taraf</b> – taraf, tomon <b>otel</b> - mehmonxona <b>Sol</b> – chap (chap tomon) <b>Bunlar</b> - bular	<b>Giyim</b> – kiyim <b>giyim dükkanı</b> – kiyim do’koni <b>Ora</b> – u yer <b>Binmek</b> – minmoq (transportga minmoq) <b>Geçmek</b> – o’tmoq <b>Hangisi</b> – qaysi biri <b>Sadece</b> – faqat, bor yo’gi <b>Bir şey değil</b> - arzimaydi <b>İş</b> - ish <b>Sağ</b> – o’ng (o’ng tmonon)
---	--



## DİL BİLGİSİ – GRAMMATIKA

### Qo’shimchalar (takrorlash)

.....’da (,..’de) 	O otel’de yaşıyor - <i>U mehmonxonada yashaydi.</i> Sol taraf’da dükkan var - <i>chap tarafda do’kon bor.</i> Bura – <i>bu yer.</i> Burada – <i>bu yerda.</i>
.....’a (...’ya) 	Otel’a git - <i>Mehmonxonaga bor</i> Araba’ya bin - <i>Moshinaga min</i> Ora – <i>u yer.</i> Ora’ya – <i>u yerga</i>
...-dan (...-den) 	Istanbul’dan geldim – <i>Istanbuldan keldim</i> Mustafa’dan aldım – <i>Mustafadan oldim</i> Nere – <i>qayer.</i> Nereden – <i>qayerdan</i>
....’ı (....’yi)	Kitap al – <i>Kitob ol,</i> Kitap’ı al - <i>Kitobni ol</i> iş’i yap – <i>ishni bajar</i> Ayakkabı’yi ver - <i>Oyoq-kiyimni ber</i>

### Gelecek zaman – Kelasi zamon

Turk tilida kelasi zamonda bo’ladigan ish-harakatni ifodalash uchun fe’l oxiriga “-acak, -acağım” kabi qo’shimchalar qo’shiladi.

Kishilik olmoshi (Men, Sen, U, ... )ga ko'ra qo'shimchalar o'zgaradi.

<b>Ben</b> ___ <i>fe'l</i> ___-acağım (eceğim) <b>Sen</b> ___ <i>fe'l</i> ___-acaksın (eceksin) <b>O</b> ___ <i>fe'l</i> ___-acak (ecek) <b>Biz</b> ___ <i>fe'l</i> ___-acağız (eceğiz) <b>Siz</b> ___ <i>fe'l</i> ___-acaksınız (eceksiniz) <b>Onlar</b> ___ <i>fe'l</i> ___-acaklar (ecekler)	<i>Masalan:</i> Ben yapacağım – <i>Men qilaman</i> Sen yarın geleceksin – <i>Sen ertaga kelasan</i> O ev alacak – <i>U uy oladi</i> Biz gideceğiz – <i>Biz boramiz / ketamiz</i> Siz öğreneceksiniz – <i>Siz o'rganasiz</i> Onlar para verecekler - <i>Ular pul beradilar</i>
--	---

Fe'l(ish-harakat) dagi oxirgi unli (oxirgi yoki oxirgidan avval kelgan unli) harflarga ko'ra qo'shimcha harfi o'zgaradi

<i>Oxirgi harf undosh bo'lib, undan avval quyidagi unlilar bo'lsa:</i> <b>e, i, ö, ü</b> (+undosh) => - <b>e</b> (acağım, acak, ...) <b>a, ı, o, u</b> (+undosh) => - <b>a</b> (eceğim, ecek, ...)  <i>Unlidan keyin</i> => - <b>ya / -ye</b>	Ben ver- <u>eceğim</u> , Sen iç- <u>eceksin</u> Ben al- <u>cağım</u> , Sen otur- <u>acağım</u>  Ben yaşa- <u>yacağım</u> , Sen oku- <u>yacaksın</u>
---	--

## 1. MASHQ – O'qing va tarjima qiling.

1. Sen ne iş yapıyorsun ? Ben dükkanda çalışıyorum.
2. Sen şimdi nerede çalışıyorsun ? Ben pazarda ayakkabı satıyorum
3. Sen hangi iş'de çalışıyorsun ? Ben otel'de çalışıyorum.
4. Pardon, burada otel var mı? Evet, var.
5. Otel'a nasıl gideceğim ? Sol taraf'a git
6. yarın benim babam uzak şehirden gelecek.
7. yarın benim arkadaş benim evim'e gelecek.
8. iki gün sonra onlar taşkentten istanbul'a gidecekler.
9. Ahmet bir ay sonra bura'ya gelecek.
10. Bu dükkanda giyimler var mı ? Hayır. Bizim dükkân'da giyim yok.
11. Bizim dükkanda sadece ayakkabılar var.
12. Otel'a nasıl gideceğim? Bu duraktan otobüs'a bin
13. Hangi araba'ya bineceğim? Orada kırmızı araba var. Ona bin.
14. Sen ne satıyorsun? Ben ayakkabı satıyorum.
15. Bunlar ne? Bunlar ayakkabılar? Hangisi iyi? Bunusu iyi.

## 2. MASHQ – O'qing va yodlang.

- Pardon, nereda giyim dükkânı var ?
  - Dükkan buradan çok uzak.
- Ne kadar uzak ?
  - Buradan 4 - 5 kilometre uzak.
- Hangi taraf'ta
  - Sol taraf'a git
- Nasıl gideceğim ?
  - Orada durak var. Oradan otobüs'a bin
- Buradan çok otobuslar geçiyor. Hangisi gidecek.?

- Ötobus 45'a bin. Sadece O gidecek
- Teşekkür ederim
- Bir şey değil.

### **3. MASHQ - O'qing va yodalang.**

- iyi günler. Merhaba!
- Bana ayakkabı lazım
- Hangi renk istiyorsunuz
- Beyaz renk istiyorum.
- Biz'de şimdi beyaz ayakkabılar yok. Sadece siyah var.
- Bu kaç para
- Bunun fiyatı 85 lira
- Bu çok pahalı. Benda şimdi az para var. ucuz ayakkabılar hangisi
- Ucuz ayakkabılar bu taraf'ta

### **4. MASHQ – savollarga javob bering.**

- 1) Siz yarın ne yapacaksınız ?
- 2). Dersden sonra nereye gideceksiniz ?
- 3). Hangi otobus'a bineceksiniz?
- 4). Ev'de nasıl kitap okuyacaksınız?
- 5) Sizin Buradan eviniz'e kadar kaç tane otobüs durağı var?
- 6) Sizin ev buradan ne kadar uzak?
- 7) Siz ne zaman pazara gideceksiniz?
- 8) Siz dersden sonra ne yapacaksınız?
- 9) Siz yarın saat kaçta işten (okuldan, üniversiteden) ev'e geleceksiniz?
- 10) Her yarın kaçta ders'e geleceksiniz?

### **5. MASHQ – So'zlarni to'g'ri joylashtirib gaplar tuzing.**

- 1) yarın, okumak, kitap, iyi, Ben, O,
- 2) onlar, gelmek, 2 gün, Buraya, sonra
- 3) hafta, bir, sonra, gitmek, türkiye, arkadaş, senin,
- 4) yarın, gelmek, onlar, türkiyeden,
- 5) bu, duraktan, otobüs, geçmek, bugün
- 6) uzak, ne kadar, buradan, oraya
- 7) taraf'ta, senin, hangi, ev
- 8) annem, güzel, almak, Pazardan, çanta, yarın

## **11-DARS**

### **SÖZLÜK – LUG'AT.**



So'zlarni o'qing va yodlang

<b>Anahtar</b> - kalit <b>Kendi</b> – o'zi <b>Lütfen</b> - iltimos <b>içmek</b> - ichmoq <b>Açmak</b> - ochmoq <b>da / de</b> - ham	<b>Oturmak</b> – o'tirmoq <b>Kalkmak</b> - turmoq <b>Kapatmak</b> - yopmoq <b>için</b> - uchun <b>Olmak</b> – bo'lmoq <b>Hastane</b> – kasalxonona
--	---

## DİL BİLGİSİ – GRAMMATIKA

### Egalik qo'shimchalar (takrorlash)

Avvalgi 4-darsda bu haqda o'rgangan edik. Ushbu o'rinda qisqacha takrorlab, turli misollar keltiramiz. Egalik qo'shimchalari biror narsani kimgadir tegishli ekanligini bildirish uchun qo'shiladi, Masalan: Bu mening .... –im (Bu mening kitobim, Sening uying, uning xonasi)

<b>Benim</b> adım, işim, arabam <b>Senin</b> adın, işin, araban <b>Onun</b> adı, işi, arabası, <b>Bizim</b> adımız, işimiz, arabamız <b>Sizin</b> adınız, işiniz, arabanız <b>Onların</b> adları /adı, işleri/ işi, arabaları / arabası  <b>Mustafanın</b> işi, arabası, evi <b>Ahmetin</b> işi, arabası, evi  <b>Arabanın</b> sahibi, kapısı, anahtarı <b>Evin</b> sahibi, kapısı, anahtarı	<i>Masalan:</i> Benim işim çok Senin adın ne? Onun adı Ahmet Bizim işimiz yok Sizin arabamız var mı? Onların arabası nerede?  Mustafanın evi burada Ahmetin arabası var  Arabanın sahibi kim ? Evin anahtarı kimde?
---	---

### da / de – ham

<b>a, ı, o, u</b> => <b>da</b> <b>e, i, ö, ü</b> => <b>de</b>	<b>Ben de türkçe biliyorum</b> – Men ham tyurkcha bilaman <b>O da hastane'ye gidecek</b> – U ham kasalxonaga boradi <b>Mustafa da oraya gelmiş</b> – Mustafa ham u yerga boripti <b>Senin araban siyah, Benim arabam da siyah</b> – Sening moshinang qora mening moshinam ham qora
--	---

### Emir (emretmek) – Buyruq (buyurmoq)

Turk tilida, Fe'ldagi “-mak, -mek” qo'shimchasi olib tashlansa, bu - “**Sen**” olmoshi uchun buyruq bo'ladi. Masalan:

**Yapmak** => **Yap = Sen yap** (*Bajarmoq => Bajar = Sen bajar*)

**Okumak** => **Oku = Sen oku** (*O'qimoq => O'qi = Sen o'qi*)









Kishilik olmoshi (Men, Sen, U, ... )ga ko'ra buyruq gap tuzish:

<b>Sen</b> <u>verb</u>	Sen yap ! – <i>Sen qil !</i>
<b>O</b> <u>verb</u> <b>-sin (-sun)</b>	O yap <u>sin</u> ! - <i>U qilsin !</i>
<b>Siz</b> <u>verb</u> <b>-iniz (-unuz, -yunuz)</b>	Siz yap <u>ınız</u> ! - <i>Siz qiling !</i>
<b>Onlar</b> <u>verb</u> <b>-sinler (-sunlar)</b>	Onlar yap <u>sinlar</u> ! – <i>Ular qilsinlar !</i>

Sen bu işi yap – Sen bu ishni qil  
O kendi yapsın – U o’zi qilsin  
O buraya gelsin – U bu yerga kelsin  
Siz kitap okuyunuz – Siz kitob o’qingiz  
Siz burada oturunuz – Siz bu yerda o’tiring  
Onlar bize para versinler – Ular bizga pul bersinlar  
Çocuklar bu kitabı okusunlar – Bolalar bu kitobni o’qisinlar

### 1. MASHQ – Rasmlarda ko’rsatilgan buyruqlarni 2-shaxs (Sen / Siz) va 3-shaxs (U/ Ular) ga nisbatan qo’llang. Masalan:

**Otur => Sen otur, Siz oturunuz, O otursun, Onlar otursunlar**

			
Otur	Kalk	Kitapı aç	Kitapı oku
			
Dinle	Buraya gel	git	Kitapı al

### 2. MASHQ – O’qing va tarjima qiling.

- 1) O hastaneya gitsin, Sen de hastaneye git!
- 2) Lütfen, burada oturunuz, siz de oturunuz
- 3) Mustafa ve Ahmet istanbuldan geldi, benim arkadaşım da istanbuldan gelmiş
- 4) Bizde kahve ve çay var. Hangisiden içeceksiniz?
- 5) Lütfen, Siz yarın benim evim’e geliniz.
- 6) Lütfen, kapı’yı kapatınız, sonra buraya geliniz
- 7) Siz onlara bu kitabı veriniz.
- 8) Bu benim kitapım. Senin kendi kitabın nerede.
- 9) Sen bu işi yap. Siz bu işleri yapınız.
- 10) Bu senin işin değil, sen kendi işini yap.

### 3. MASHQ – O'qing va tarjima qiling.

Benim adım Ahmet. Ben Taşkent'de yaşıyorum. Benim yaş yirmi iki'de. Benim iki kardeşim var. Onlar Ben'den küçük. Ben üniversite'de okuyorum. Üniversite'de benim arkadaşlar çok. Ben her gün sabah saat altıda kalıyorum. Sonra saat sekiz'da ders'e gidacağım. saat on iki'de ev'e geleceğim. Hafta'da iki gün tatil. Ders'den sonra ingilizça dil öğrenmek için kurs'a gideceğim. Ben dil öğrenmek seviyorum. Benim babam doktor. O hastane'de çalışıyor. Ben de doktor olmak istiyorum.

### 4. MASHQ – Turk tiliga tarjima qiling va yozing.

1. Ular kitob o'qisin. 2. Ular hozir borsinlar. 3. Ular til o'rgansin. 4. Bolalar ruscha o'rgansin. 5. Sen bu yerga keyin kel. 6. Qachon kelasan? Ikki soat so'ngra kelaman. 7. U menga aytdi. 8. Ular menga aytdilar. 9. Ular senga nima aytdilar? 10. Ular menga necha pul bersin. 11. Ular senga besh yuz so'm bersinlar. 12. Sening o'g'ling uyni tozalasın. 13. U o'zi tozalasın. 14. Bu kiyimni sen yuv. 15. Siz bu kiyimni tozalang.

## 12-DARS


### SÖZLÜK – LUG'AT.

So'zlarni o'qing va yodlang

<b>Ağaç</b> – daraxt	<b>İstemek</b> - xohlamoq
<b>Yaprak</b> - barg	<b>Temiz</b> - toza
<b>Hasta</b> – kasal	<b>Güzel</b> – chiroyli, go'zal
<b>Zengin</b> - boy	<b>Zor</b> - qiyin
<b>Sevmek</b> – yaxshi ko'rmoq / sevmok	<b>Kolay</b> - oson
<b>Yıl / sene</b> – yil	<b>Kişi</b> - kishi
<b>Soğuk</b> - sovuq	<b>Tercuman</b> - tarjimon

### DİL BİLGİSİ – GRAMMATIKA

Fe'l zamonlari (takrorlash)



Biz dün giyim sattık,

Biz şimdi giyim satıyoruz,

Biz yarın giyim satacağız

## OLMAK – BO'LMOQ

	Geçmiş – o'tgan	Şimdiki - hozirgi	Gelecek - kelasi
Ben	... oldum (olmuşum)	... oluyorum	... olacağım
Sen	... oldun (olmuşsun)	... oluyorsun	... olacaksın
O	... oldu (olmuş)	... oluyor	... olacak
Biz	... olduk (olmuşuz)	... oluyoruz	... olacağız
Siz	... oldunuz (olmuşsunuz)	... oluyorsunuz	... olacaksınız
Onlar	... oldular (olmuşlar)	... oluyorlar	... olacaklar

**Ağaç yaprakları yeşil oldu** – Daraxt barglari yashil bo'ldi.

**Arkadaşım hasta oldu** – Do'stim kasal bo'ldi

**Bugün hava sıcak olmuş** – bugun havo sovuq bo'lyпти

**Şimdi hava soğuk oluyor** – Hozir havo sovuq bo'lyapti

**Sizin işler şimdi iyi oluyor** - Sizning ishlarinigiz hozir yaxshi bo'lyapti

**Yarın hava soğuk olacak** – Ertaga havo sovuq bo'ladi

**Bu çocuk tercuman olacak** – bu bola tajimon bo'ladi

### 1. MASHQ – Ushbu fe'llardan tanlab 6 ta gap tuzing. Har bir gapni hozirgi, o'tgan va kelasi zamonda yozing.

(bilmek, istemek, sevmek, çalışmek, gelmek, yapmak, okumak, vermek, açmak, almak, geçmek, anlamak, yaşamak, öğrenmek)

Masalan: - Ben şimdi türkçe öğreniyorum, – Ben geçen sene türkçe öğrendim, Ben sonra türkçe öğreneceğim

### 2. MASHQ – O'qing va tarjima qiling.

1) Pazarda fiyatlar nasıl? Giyimler pahalı oldu? Ama yarın ucuz olacak

2) Dün hava çok soğuk oldu. Bugün da soğuk olacak

3) Kim hasta oldu? Burada bir kişi hasta oldu

4) Sana ne oldu? Ben bir az hasta oldum

- 5) Şimdi hava soğuk oluyor.
- 6) Türkçe öğrenmek zor oluyor.
- 7) Dün O hasta oldu, Ama şimdi iyi oluyor
- 8) Siz bugün iyi oluyorsunuz
- 9) Ben zengin olacağım.
- 10) Ben güzel olacağım.
- 11) Sen kim olacaksın. Ben tercuman olacağım.
- 12) Bu çocuk doktor olacak.
- 13) Senin arkadaş tercuman olacak.
- 14) Bu ağaçlar büyük olmuşlar
- 15) Bugün pazarda fiyatlar ucuz olmuş

### 3. MASHQ – Quyidagi so'zlardan keraklisini qo'yib gaplarni to'ldiring.

(Zengin, hasta, iyi, soğuk, büyük, küçük, güzel, beyaz, temiz, zor, kolay, yeşil)

1. Türkçe öğrenmek çok .....
2. İngilizce öğrenmek .....
3. Bunu yapmak çok .....
4. Bu kişi çok .....
5. Benim gömleğim .....
6. Bugün hava çok .....
7. Dün hava çok .....
8. Yarın hava .....
9. Bugün benim arkadaşım .....
10. Ağaçların yaprakları .....
11. Şimdi bu oda .....
12. Bu kişinin pantolonu .....

### 4. MASHQ – O'qing va gapirib bering.

#### Benim arkadaş

Benim arkadaşımın adı Hasan. Onun yaşı 40'da. O şimdi Antalya'da yaşıyor. Ama O iki sana(yıl) önce Ankara'da yaşadı. Hasan şimdi dükkanda satıcı. Onun iki çocukları var. Onlar çok iyi çocuklar. Onların adı Ahmed ve Ali. Onlar dil öğrenmek seviyorlar. Çocuklar okul'da okuyorlar. Onlar türkçe ve ingilizçe biliyorlar. Şimdi rusça da öğreniyorlar. Ahmed doktor olmak istiyor. Ali tekstil fabrikasının'da çalışmak istiyor.

#### Benim kardeş

Bizim aile'de beş kişi var. Onlar: babam, annem, iki kardeşim ve Ben. Benim büyük kardeşim'in adı Hasan. Onun yaş 28'de. O üniversite'de okudu. Sonra rusça dil öğrendi. Hasan şimdi Rusya'da fabrika'da çalışıyor. O fabrika'nın sahibi. Hasan bir sene sonra Rusya'dan Taşkent'e gelecek. Taşkent'te da onun evi var. Onun ailesi Taşkent'te yaşıyorlar. Taşkent çok güzel şehir.

### 5. MASHQ – Savollarga javob bering.

- 1) Siz yarın nereye gideceksiniz ?
- 2) Siz hangi üniversite'de okudunuz ?



- Bugün hava sıcak, <u>değil mi</u> ? - Evet, hava sıcak - Yarın hava soğuk olacak, <u>değil mi</u> ? - Hayır, yarın da sıcak olacak.	- Bu ev en küçük, <u>değil mi</u> ? - Evet bu ev en küçük - O çok iyi çocuk, <u>değil mi</u> ? - Hayır, O çok iyi değil
--	--

## BO'LMOQ FE'LINING SO'ROQ SHAKLI (HOIZRGI Z.)

Bo'lmoq fe'li ya'ni sifat so'zlarga asosan "Qanday?, Qanaqa?" savollari beriladi. Masalan: Chiroyli (chiroyli bo'lmoq), Katta (katta bo'lmoq), baland (baland bo'lmoq), qizil, qora, yaxshi, yomon, yosh bo'lmoq, qari bo'lmoq, do'st bo'lmoq va hokazo. Sifat (bo'lmoq) haqida savol berish uchun so'roq qo'shimchalari ishlatiladi. Turk tilida so'roq qo'shimchasi alohida yoziladi. Masalan:

**Ben güzel miyim?** – Men chiroylimi ?

**Siz hasta mısınız?** – Siz kasalmisiz?

**Bu iyi mi?** - Bu yaxshimi?

**Onlar büyük mülar ?** – Ular kattamilar?

Kishilik olmoshi (Men, Sen, U, ... )ga ko'ra qo'shimchalar o'zgaradi.

<b>Ben ... miyim (muyum) ?</b>	Ben güzel miyim?
<b>Sen ... misin (musun) ?</b>	Sen iyi misin ?
<b>O/ bu ... mi (mu) ?</b>	Bu ev büyük mü ?
<b>Biz ... miyiz (muyuz) ?</b>	Biz burada mıyız?
<b>Siz ... misiniz (musunuz) ?</b>	Siz arkadaş mısınız?
<b>Onlar ... miler (mular) ?</b>	Onlar öğretmen miler?

Fe'l(ish-harakat) dagi oxirgi unli (oxirgi yoki oxirgidan avval kelgan unli) harflarga ko'ra qo'shimcha harfi o'zgaradi

<i>Fe'ldagi oxirgi yoki oxirgidan avval kelgan harf quyidagi unlilarlar bo'lsa</i> <b>e, i</b> => - i (mi, miyim, misin, ...) <b>a, ı</b> => - ı (mı, mıyım, mısınız, ...) <b>o, u</b> => - u (mu, muyum, musun, ...) <b>ö, ü</b> => - ü (mü, müyüm, müsün, ...)	<i>Masalan:</i> Ben öğretmen miyim? Siz arkadaş mısınız ? Sen patron musun ? Onlar patron mular O ev büyük mü ? Onlar küçük müler
--	---

### 1. MASHQ – O'qing va tarjima qiling.

1. Ben şimdi Taşkent'te miyim ?
2. Ben güzel miyim ?
3. Sen okulda öğretmen misin ?
4. Sen bugün ev'de misin ?
5. Sen şimdi iyi misin ?
6. Siz bu ay İstanbul'da mısınız ?
7. Siz ve O arkadaş mısınız?
8. Siz fabrika'da patron musunuz ?
9. Siz Ahmet misiniz ? Hayır, benim adım Mustafa

10. O kişi doktor mu ?
11. Mustafa dükkan'da satıcı mı ?
12. Onlar tatil'de miler ?
13. Ne zaman tatil olacak? Sonraki ay tatil.
14. Size ekmek lazı mı ? Bana bir bardak su ve iki tane ekmek lazım
15. Bu su soğuk mu ? Evet bu su soğuk

## **2. MASHQ – Turk tiliga tarjima qiling.**

Bu nima? Bu kitob. Bu kitob yaxshimi? Ha bu juda yaxshi kitob.  
Bu suvmi ? Ha bu suv. Bu suv sovuqmi ? Ha bu sovuq.  
Siz o'qituvchimisiz? Ha men o'qituvchi.  
Bu uy eng chiroylimi? Yo'q bu eng chiroyli emas.  
Bu uy eng kattami? Yo'q bu uy eng katta emas.  
Bu kiyim eng yaxshimi ? Yo'q bu eng yaxshi kiyim emas.  
Qaysi kiyim eng yaxshi? Bu ko'ylak eng yaxshi.  
Xonalar tozami? Yo'q, hozir toza emas. Ertaga toza bo'ladi.  
Ertaga havo qanday bo'ladi? Ertaga issiq bo'ladi.  
Sizning ismingiz Mustafami? Ha, men Mustafa.

## **3. MASHQ – Do'stingiz bilan quyidagidek savol-javob qiling.**

- Sizin telefon numaraniz var mi? (*Sizning telefon raqamingiz bormi?*)
- Evet var. (*Ha, bor*)
- Siz bana telefon numaraniz'i so'leyiniz ? (*Siz menga telefon raqamingizni ayting*)
- Benim telefon numaram: 114-54-00 (*Mening telefon raqamim: 114-54-00* )
- Senin telefon numaran kaç? (*Senin telefon raqaming necha?*)
- Benim numaram 636-50-61 (*Mening raqamim*)
  
- Onun telefon'u var mı ?
- Evet. var
- Onun telefon numarası kaç?
- Onun numarası 123-45-66,
  
- Babanız'de telefon var mı?
- Evet, onun telefon numarası var.
- Bana sizin babanız'ın numarası lazım?
- Babamın telefon numarasu bu: 123-05-06

## **4. MASHQ – Gaplarga so'roq qo'shimchasi qo'yib savollar tuzing?**

*Masalan: Siz fabrika'da patron musunuz?*

1. Sen okulda oğretmen .....
2. Sen üniversite'de oğrenci .....
3. O şimdi ev'de .....
4. Senin baban tercuman .....
5. Siz dükkan'da satıcı .....
6. Siz şimdi burada .....



# 14-DARS

## SÖZLÜK – LUG'AT.

So'zlarni o'qing va yodlang

<b>Aç</b> – och (qorin ochishi)	<b>Akıllı</b> - aqlli
<b>Yardımcı</b> - yordamchi	<b>Mutlu</b> - xursand
<b>Aşçı</b> - oshpaz	<b>Yemek</b> - ovqat
<b>Şey</b> - narsa	<b>Yemek</b> - yemoq
<b>Lokanta</b> – Oshxona, restoran	<b>Yemek yemek</b> - ovqat yemoq

## DİL BİLGİSİ – GRAMMATIKA

### BO'LMOQ FE'LINING TASDIQ VA INKOR SHAKLI.

(Hozirgi z.)

Turk tilida hozirgi zamonda biror shaxs tomonidan “kim?, nima?, qanday?, qayerda?” savollariga javob berilsa so'z oxiriga qo'shimchalar qo'shiladi. Masalan:

**Ben mutluyum** – Men xursandman (ya'ni hozir xursand bo'lyapman)

**Ben iyiyim** – Men yaxshiman (hozirda yaxshi bo'lib turibman)

**Ben doktorum** - Men do'xtirman

**Sen nasilsın** – Sen qandaysan

**Sen güzelsin** – Sen chiroylisan

**Siz hastasınız** - Siz kasalsiz

Kishilk olmoshlariga ko'ra quyidagicha qo'shimchalar qo'shiladi

Ben	<b>doktorum,</b>	<b>güzelim,</b>	<b>iyiyim</b>
Sen	<b>doktorsun,</b>	<b>güzelsin,</b>	<b>iyisin</b>
O	<b>doktordur,</b>	<b>güzeldir,</b>	<b>iyidir</b>
Biz	<b>doktoruz,</b>	<b>güzeliz,</b>	<b>iyiyiz</b>
Siz	<b>doktorsunuz,</b>	<b>güzelsiniz,</b>	<b>iyisiniz</b>
Onlar	<b>doktordurlar,</b>	<b>güzeldirler,</b>	<b>iyidirler</b>

### SAVOL, TASDIQ va INKOR QO'SHIMCHALARI

Turk tilida so'roq qo'shimchasi har doim alohida yoziladi.

Ben dokotor **muyum** ? – Men do'xtirmi?

Evet, Ben doktor**um** – Ha, men do'xtirman

Hayır, Ben doktor **değilim** – Yo'q, men to'xtir emasman

OLMOSH	SAVOL	TASDIQ	INKOR
<b>Ben</b>	miyim (muyum) ?	....-im (um)	değilim
<b>Sen</b>	misin (musun) ?	....-sin (sun)	değilsin
<b>O</b>	mi (mu) ?	.... (-dir, dur)	değil
<b>Biz</b>	miyiz (muyuz) ?	....-iz (yiz, uz)	değiliz
<b>Siz</b>	misiniz (musunuz) ?	....-siniz (sunuz)	değilsiniz
<b>Onlar</b>	miler (mular) ?	... (-ler, lar)	değiller

O hasta mı ? Evet, O hasta(dır) Hayır O hasta değil  
Biz patron muyuz ? Biz patronuz, Biz patron değiliz  
Siz açmısınız ? Siz açsınız Siz aç değilsiniz

### 1. MASHQ – O'qing va tarjima qiling.

1. Bu benim ev. Ben ev sahibiyim
2. Ben şimdi okulda öğrenciyim
3. Sen çok iyisin. Sen çok iyi kişisin
4. Neden sen bugün mutlusun?
5. O şimdi lokanta'da yardımcıdır
6. Onun babası lokanta'da aşçıdır
7. Biz bir şey yemek istiyoruz, çok açız
8. Sen benim kardeşimsin. Sen çok akıllısın
9. Siz çok okuyorsunuz, çünkü akıllısınız
10. Siz bugün çok mutlusunuz
11. Siz nasılsınız? Teşekkür ederim, Ben çok iyiyim,
12. Sen nasılsın? Çok mutluyum.
13. Siz otel'de patron musunuz? Evet, ben otelin patronuyum.
14. Siz arabanın sahibi misiniz? Evet, ben arabanın sahibiyim.
15. Siz ev sahibi misiniz? Hayır, ben ev sahibi değilim.

### 2. MASHQ – Quyidagi so'zlardan foydalanib gaplarni davom ettiring.

(öğretmen, öğrenci, sahib, patron, aşçı, yardımcı, satıcı, tercuman, doktor, arkadaş)

Benim adım Ahmed. Ben okul'da ....., Babam .....,  
O hastane'de çalışıyor. Annem ..... O üniversitede ders veriyor.  
Siz lokanta'da ..... Sen fabrika'da ..... Biz  
pazarda ..... Onlar firma'da ..... O benim .....  
Sen kimsin? Ben ..... Kim burada patron, Biz .....

### 3. MASHQ – Quyidagi so'zlardan foydalanib gaplarni namunadagi kabi tuzing.

Ya'ni har bir gapning so'roq, tasdiq va inkor shaklini yozing.

(iyi, kardeş, akıllı, güzel, mutlu, aç, hasta, temiz, büyük, patron, tercuman, çocuk)

Masalan: (akıllı)

0) Ben akıllı mıyım ? Evet, Ben akıllıyım, Ben akıllı değilim

1. Ben .....
2. Sen .....
3. O .....
4. Biz .....
5. Siz .....
6. Onlar .....

#### 4. MASHQ – Dialogni o'qing va yodlang



*Öğretmen:* Ahmet, nasılsın?  
*Ahmet:* Teşekkür ederim öğretmenim, iyiyim. Siz nasılsınız?  
*Öğretmen:* Ben de iyiyim.  
Teşekkür ederim. Bu ne Ahmet?  
*Ahmet:* Bu kalem öğretmenim.  
*Öğretmen:* Bu nasıl kalem?  
*Ahmet:* Bu maviy kalemdir.

(kalem - qalam)

## 15-DARS

### SÖZLÜK – LUG'AT.

So'zlarni o'qing va yodlang

**Konuşmak** - gapirmoq

**Bunu** – buni

**Yemek yiyor** – ovqat yeyapti

**Görmek** – ko'rmoq

**Hiç bir şey** – hech narsa

**En** - eng

**Kesmek** - kesmoq

**Beni** - Meni

**Onu** - Uni

**Yabancı** - xorijiy

**getirmek** - keltirmoq

**kahve** - kofe

### DİL BİLGİSİ – GRAMMATIKA

#### HOZIRGI ZAMON FE'LINING SO'ROQ SHAKLI

Turk tilida savol tuzish uchun fe'lga **-iyor** qo'shimchasi qo'shilib keyin savol qo'shimchasi **-mu, -muyum, -musun** alohida yoziladi. Masalan:

**Sen çalışıyor musun?** – Sen ishlayapsanmi ?

**O kitap okuyor mu?** – U kitob o'qiyaptimi ?

Ben ... -iyor muyum? (-uyor muyum)

Sen ... -iyor musun ? (-uyor musun )

O ... -iyor mu ? (-uyor mu)

Biz ... -iyor muyuz ? (-uyor muyuz)

Siz ... -iyor musunuz ? (-uyor musunuz)

Onlar ... -iyor mular? (-uyor mular)

*Masalan:*

Ben **yaşiyor muyum?**

Sen **kitap okuyor musun ?**

O ev'den **geliyor mu?**

Biz dil **öğreniyor muyuz?**

Sin şimdi **çalışıyor musunuz?**

Onlar türkçe **anlıyor mular?**

## HOZIRGI ZAMON FE'LINING INKOR SHAKLI

Turk tilida hozirgi zamon fe'lining inkor shaklini yasash uchun fe'dan keyin **-m-**, **-ma**, **-mi**, **-mu** qo'shimchasi qo'shiladi, so'ngra, **-iyor**, **-iyorum**, **-iyorsun**,... qo'shiladi.

Masalan:

<b>Yapmak</b> – qilmoq ( <i>fe'l</i> ) <b>Yapmamak</b> - qilmaslik ( <i>inkor fe'l</i> ) <b>Yapma</b> - qilma ( <i>inkor buyruq</i> ) <b>Yapmiyorum</b> – qilmayapman ( <i>inkor hozirgi zamon</i> )
<b>Gitmek</b> – bormoq ( <i>fe'l</i> ) <b>Gitmemek</b> – bormaslik ( <i>inkor fe'l</i> ) <b>Gitme</b> – borma ( <i>inkor buyruq</i> ) <b>Gitmiyorum</b> – bormayapman ( <i>inkor hozirgi zamon</i> )
<b>Okumak</b> – o'qimoq ( <i>fe'l</i> ) <b>Okumamak</b> - o'qimaslik ( <i>inkor fe'l</i> ) <b>Okuma</b> - o'qima ( <i>inkor buyruq</i> ) <b>Okumuyorum</b> - o'qimayapman ( <i>inkor hozirgi zamon</i> )

Hozirgi zamon inkor fe'li qo'shimchalari.

Ben ..... – miyorum (-muyorum) Sen ..... – miyorsun (-muyormusun) O ..... – miyor (-muyor) Biz ..... – miyoruz (-muyoruz) Siz ..... – miyorsunuz? (-muyorsunuz) Onlar ..... – miyorlar? (-muyorlar)	<i>Masalan:</i> Ben kitap okumuyorum Neden sen bu iş'i yapmıyorsun O bugün iş'a gelmiyor Biz ora'ya otobus'da gitmiyoruz Siz Almança bilmiyorsunuz Onlar beni anlamıyorlar
--	--

## SAVOL, TASDIQ VA INKOR QO'SHIMCHALARI (Hozirgi zamon fe'li)

OLMOSH	SAVOL	TASDIQ	INKOR
<b>Ben</b>	-iyor muyum ?	- iyorum	- miyorum
<b>Sen</b>	-iyor musun ?	- iyorsun	- miyorsun
<b>O</b>	-iyor mu ?	- iyor	- miyor
<b>Biz</b>	-iyor muyuz ?	- iyoruz	- miyoruz
<b>Siz</b>	-iyor musunuz ?	- iyorsunuz	- miyorsunuz
<b>Onlar</b>	-iyor mular ?	- iyorlar	- miyorlar

Fe'l(ish-harakat) dagi oxirgi unli (oxirgi yoki oxirgidan avval kelgan unli) harflarga ko'ra qo'shimcha harfi o'zgaradi

<b>e, i =&gt; i</b> (iyor muyum?, miyorum .... ) <b>a, ı =&gt; ı</b> (iyor muyum?, miyorum .... ) <b>o, u =&gt; u</b> (uyor muyum?, muyorum .... ) <b>ö, ü =&gt; ü</b> (üiyor muyum?, müyorum .... )	<i>Masalan</i> Sen <u>bekliyor musun?</u> Ben <u>beklemiyorum</u> Sen <u>anlıyor musun?</u> Ben <u>anlamıyorum</u> Sen <u>oturuyor musun?</u> Ben <u>oturmuyorum</u> Sen <u>görüyor musun?</u> Ben <u>görmüyorum</u>
---	--

## INKOR BUYRUQ GAP

Türk tilida buyruq gapning inkor shaklini yasash uchun, buyruq fe'li oxiriga **-ma, -me** qo'shiladi. Masalan:

Bu kitap'ı okuma! - Bu kitopni o'qima

Dur, gitme - To'xta, ketma

Ağaçlar'ı kesme – daraxtlarni kesma

Qo'shimchalar ham fe'l oxiridagi (yoki oxirigidan oldingi) unli harfga ko'ra o'zgaradi.  
Ya'ni

**a, ı, o, u** => -ma

**e, i, ö, ü** => -me

### 1. MASHQ – O'qing va tarjima qiling.

1. Ben iyi okuyor muyum? Evet, Sen çok iyi okuyorsun
2. Ben türkçe iyi konuşuyor muyum? Evet sen çok iyi konuşuyorsun.
3. Sen beni anlıyor musun? Evet, sizi anlıyorum.
4. Sen bunu seviyor musun? Evet, ben seviyorum.
5. Siz bugün ders öğreniyor musunuz? Evet ben ders öğreniyorum.
6. Siz yemek yiyor musunuz? Evet Ben şimdi yemek yiyorum.
7. O şimdi çay içiyor mu? Evet O şimdi çay içiyor.
8. O bugün türkiye'ye gidiyor mu? Evet, O türkiyeye gidiyor.
9. Senin baban otel'de çalışıyor mu? Evet, O otel'de çalışıyor
10. Ahmet lokanta'da çay içiyor mu? Evet, O çay içiyor.

### 2. MASHQ – O'qing va tarjima qiling.

1. Ben türkçe iyi anlıyor muyum? Hayır / Yok, Sen iyi anlamıyorsun.
2. Ben iyi konuşuyor muyum? Hayır / Yok, Sen iyi konuşmuyorsun.
3. Sen onu anlıyor musun? Hayır, ben onu anlamıyorum.
4. Sen yabancı dil biliyor musun? Hayır, ben yabancı dil bilmiyorum.
5. Siz kahve içmek seviyor musunuz? Hayır, Ben kahve'yi sevmiyorum. Çay'ı seviyorum
6. Siz şimdi bunu yapıyor musunuz? Hayır, şimdi yapmıyorum.
7. O bugün ağaçlar'ı kesiyor mu? Hayır, O bugün kesmiyor
8. O otel'de çalışıyor mu? Hayır O otelde çalışmıyor. O hastane'de çalışıyor
9. Ahmet bugün buraya geliyor mu? Hayır. O gelmiyor.
10. Senin kardeşin ev'i temizliyor mu? Hayır O temizlemiyor.

### 3. MASHQ – Quyidagi so'zlar yordamida hozirgi zamon savollari tuzing.

(içmek, yaşamak, gelmek, gitmek, bilmek, getirmek, ders vermek, kesmek, satın almak, gitmek,)

1. Sen bu ev'de .....
2. Sen su .....
3. Sen akşam ev'e.....
4. Siz sabah iş'e .....
5. Siz yabancı dil .....
6. O bardak'da kahve.....
7. O okul'da .....
8. O ağaçları .....
9. Ahmet pazardan giyim .....
10. Onlar istanbul'a .....

#### 4. MASHQ – Quyidagi gaplarni inkor shaklga aylantiring.

1. Sen ishlayapsanmi? 2. Sen sovuq suv ichishni xohlaysanmi. 3. U hozir yaxshi ishlayaptimi? 4. Sen tushunayapsanmi? 5. Ular turkcha tushunadilarmi? 6. Sen til o'rganishni yaxshi ko'rasanmi? 7. Sen turkiyaga borishni xohlaysanmi? 8. O'qituchi dars beryaptimi? 9. Turkiyada havo sovuq bo'lyaptimi? 10. Sen buni ko'ryapsanmi? 11. Sen daraxtlarni ko'ryapsanmi? 12. Siz meni ko'ryapsizmi?

#### 5. MASHQ – O'qing va gapirib bering

Istanbul türkiyenin en güzel şehri. Burada hava çok sıcak. Bir sene'de iki ay soğuk oluyor. Ben şimdi istambul'da yaşıyorum. Ben hastane'de çalışıyorum. Ben bu iş'i çok seviyorum. Ama, bu iş çok zor. Doktor olmak kolay değil. Her gün akşam saat on'de ev'e geliyorum. Sonra bir bardak kahve içiyorum. Benim iki çocuk var. Onlar da doktor olmak istiyorlar.

#### 6. MASHQ – Savollarga javob bering.

1. Siz ev'de yabancı dil'de kitaplar okuyor musunuz?
2. Hangi yabancı dil'de en iyi konuşuyorsunuz?
3. Siz soğuk hava'yı seviyor musunuz?
4. Siz kahve içmek seviyor musunuz?
5. Türkçe öğrenmek siz'e zor değil mi?
6. Siz hangi şehirler'e gitmek istiyorsunuz?
7. En çok hangi dili seviyorsun?
8. Siz şimdi ders okuyor musunuz?
9. Siz her gün akşam saat kaçta yemek yiyorsunuz?
10. Siz rusça biliyor musunuz?

## 16-DARS

### SÖZLÜK – LUG'AT.

So'zlarni o'qing va yodlang

<b>Daha</b> - yanada	<b>Mutfak</b> - oshxona
<b>En</b> - eng	<b>Banka</b> - bank
<b>Hakkında</b> - haqida	<b>ziyaret etmek</b> - xabar olish / ziyorat
<b>Hazırlamak</b> - tayyorlamoq	<b>buçuk</b> - yarim
<b>Uçak</b> - samalyot	<b>havalimanı</b> - aeroport
<b>Kış</b> – qish	<b>bilet</b> – chipta
<b>Patates</b> - Kartoshka	<b>domates</b> – pomidor

### DİL BİLGİSİ – GRAMMATIKA

**DAHA, EN – YANADA, ENG**



Küçük	-	<b>Daha</b> küçük	-	<b>En</b> küçük
Büyük	-	Daha büyük	-	En büyük
Güzel	-	Daha güzel	-	En güzel
Sıcak	-	Daha sıcak	-	En sıcak
Kolay	-	Daha kolay	-	En kolay
Sonra	-	Daha sonra	-	----

Taşkent şimdi sıcak yer. Ama Termez daha sıcak.  
 Türkçe öğrenmek çok kolay. İngilizce Öğrenmek daha kolay.  
 Dükkan'da fiyatlar ucuz. Ama pazar'da daha ucuz  
 Afrika dünya'nın en sıcak yeri.  
 Arktika dünyanın en sıcak yeri mi? Hayır. En sıcak değil. Ora en soğuk yer

### O'TGAN ZAMON FE'LI SAVOL, TASDIQ VA INKOR GAP

O'tgan zamon fe'lini 7-darsda o'rgangan edik, bu mavzuda o'tgan zamonda bo'lgan ish haqida savol so'rash va unga javob berish haqida o'rganamiz. O'tgan zamonda savol berish uchun, o'tgan zamon fe'luga **mi, -mi, -mu** qo'shimchasi qo'shiladi. Masalan:

- Sen dün geldin mi?** – Sen kecha keldingmi?  
**Sen ona söyledin mi?** – Sen unga aytding mi?  
**Siz burada çalıştınız mı?** – Siz bu yerda ishladingizmi?  
**O kitabı okudu mu?** – U kitobni o'qidimi?

O'tgan zamonda inkor gap yasash uchun –**madı, -medi** qo'shimchalari qo'shiladi.

Masalan:

- Ben dün gelmedim** – Men kecha kelmadim.  
**Neden sen ona söylemedin** – Nega siz unga aytmadingiz  
**Siz burada çalışmadınız** – Siz bu yerda ishlamadingiz  
**O kitap okumadı** – U kitob o'qimada

O'tgan zamon so'roq, tasdiq va inkor qo'shimchalari.

OLMOSH	SAVOL	TASDIQ	INKOR
<b>Ben</b>	-dim mi ?	- dim	- medim
<b>Sen</b>	-din mi ?	- din	- medin
<b>O</b>	-di mi ?	- di	- medi
<b>Biz</b>	-dik mi ?	- dik	- medik
<b>Siz</b>	-diniz mi ?	- diniz	- mediniz

<b>Onlar</b>	-diler mi ?	- diler	- mediler
--------------	-------------	---------	-----------

Fe'l(ish-harakat) dagi oxirgi unli (oxirgi yoki oxirgidan avval kelgan unli) harflarga ko'ra qo'shimcha harfi o'zgaradi

<p><b>e, i</b> =&gt; i, e (-<b>din mi?</b>, -<b>medim ....</b> )  <b>a, ı</b> =&gt; ı, a (-<b>dın mı?</b>, -<b>madım ....</b> )  <b>o, u</b> =&gt; u, a (-<b>dun mu?</b>, -<b>madım ....</b> )  <b>ö, ü</b> =&gt; ü, e (-<b>dün mü?</b>, -<b>medim ....</b> )</p> <p><i>So'zdagi faqat oxirgi harf jarangli undosh bo'lsa -d- harfi -t- harfiga aylanadi</i></p> <p><b>f, s, t, k, ç, ş, h, p</b> =&gt; - t</p>	<p><i>Masalan</i>  Sen bekledin <u>mi?</u> Ben beklemedim  Sen anladın <u>mı?</u> Ben anlamadım  Sen oturdun <u>mu?</u> Ben oturmadım  Sen gördün <u>mü?</u> Ben görmedim</p> <p>Ben çalıştı <u>mı?</u> , Sen yaptın <u>mı?</u>,  O gitti <u>mi</u>, Ben çay içtim <u>mi?</u></p>
---	---

## HAFTA

Pazartesi, Salı, Çarşamba, Perşembe, Cuma, Cumartesi, Pazar

### 1. MASHQ – O'qing va savollarga tasdiq a inkor shaklda javob bering.

**Masalan:** Dün O size para verdi mi? - Evet, verdi, - Hayır vermedi

1. O daha önce otelde çalıştı mı?
2. Sen bugün çok yemek yedin mi?
3. Sen geçen sene istanbula gittin mi?
4. Sen geçen hafta semerkand'a gittin mi?
5. Sen bu işi yaptın mı?
6. Siz Pazar günü pazara gittiniz mi?
7. Siz mutfak'ta yemek hazırladınız mı?
8. Siz bu iş hakkında konuştunuz mu ?
9. Siz ona para'yı verdiniz mi?
10. Onlar bankadan para aldılar mı
11. Ahmet banka'ya gitti mi?
12. Onlar çay içtiler mi?

### 2. MASHQ – O'qing va gapirib bering

Michael, Helenın kardeşi. O İzmir'da yaşıyor.

Michael, Helen'i ziyaret etmek istiyor. O bir uçak bileti aldı. Salı gün saat sekiz buçuk'ta (8-30) havalimanı'ya gidecek. İzmirden İstanbul'a kadar çok uzak değil. Uçak bileti çok ucuz. Kış aylarında bilet fiyatları daha ucuz olacak. Michael 2 saat sonra Helen'in evi'ne gelecek. Helen şimdi Michael'i bekliyor. O sonra yemek yapacak.

### 3. MASHQ – Savollarga javob bering.

1. Bu sene kış soğuk oldu mu?
2. Siz geçen Pazar günü neler yaptınız?
3. Siz bu sene nasıl kitaplar okudunuz?
4. Siz bu ay nasıl filmler gördünüz?
5. Siz önce türkiye'ye gittiniz mi?



6. Siz sabah yemek yediniz mi?

**4. MASHQ – O'tgan zamonda gaplar tuzing. Masalan:**

Gelmek / Ahmet / dün / türkiyeden /

Ahmet dün türkiyeden geldi mi?

Ahmet dün türkiyeden gelmedi.

Ahmet dün türkiyeden geldi.

1. Mustafa / gitmek / geçen gün / pazar'a /

..... ? (savol)

..... (inkor)

..... (tasdiq)

2. Ahmet / almak / patates / bir kilo / dükkan'dan

..... ? (savol)

..... (inkor)

..... (tasdiq)

3. Hasan / içmek / sonra / çay'dan / kahve

..... ? (savol)

..... (inkor)

..... (tasdiq)

4. Sen / yemek hazırlamak / mutfak'ta /

..... ? (savol)

..... (inkor)

..... (tasdiq)

5. Sen / almak / uçak / bileti / dün

..... ? (savol)

..... (inkor)

..... (tasdiq)

**5. MASHQ – Turk tiliga tarjima qiling.**

1. O'tgan oy samalyot biletleri arzon bo'ldi. Ammo hozir bilet qimmat.

2. Samalyot biletini qayerdan olaman? – Biletni aeroportdan ol.

3. Men kecha bilet oldim. Ertaga istanbulga ketamiz.

4. Sen bilet oldingmi ? Ha oldim.

5. Toshkentdan istanbulgacha bilet necha pul? Bilet narxi hozir arzon. Bor-yo'g'i 300 dollar.

6. Men seni ikki soat kutdim. Ammo sen kelmading.

7. Sen bankda qaysi kunlar ishlayapsan? Men faqat dushanba, seshanba va chorshanba ishlayapman.

8. Kecha bankdan pul oldingmi? Yo'q kecha pul olmadim.

9. O'tgan hafta ular daraxtlarni kesdilar? Yo'q kesmadilar.

10. Sen kecha film ko'rdingmi ? Yo'q ko'rmadim.

# 17-DARS

## SÖZLÜK – LUG’AT.

So’zlarni o’qing va yodlang

<b>Akşam yemeği</b> – Kechki ovqat <b>Öğlen</b> – kun o’rtasi (tushki payt) <b>Yumurta</b> -tuxum <b>ile</b> - bilan <b>Yemek yiyecek</b> – ovqat yeydi <b>Ocak ayında</b> – yanvar oyida	<b>Gezmek</b> – sayr qilmoq, aylanmoq <b>Hepsi</b> - hammasi <b>Bitti</b> - tugadi <b>İşte</b> – mana / mana bu <b>Büyürün</b> - marhamat <b>Beraber</b> - birgalikda
--	--

## DİL BİLGİSİ – GRAMMATIKA

### KELASI ZAMON FE’LI SAVOL, TASDIQ VA INKOR GAP

Kelasi zamon fe’lini 10-darsda o’rgangan edik, bu mavzuda kelasi zamonda bo’ladigan ish haqida savol so’rash va unga javob berish haqida o’rganamiz. Kelasi zamonda savol berish uchun fe’lga **miyim, -misin, -mi** qo’shimchasi qo’shiladi. Masalan:

**Sen yarın gelececek misin?** – Sen ertaga kelasanmi?

**Sen ona söyleyecek misin?** – Sen unga aytasanmi?

**Siz sonra burada çalışacak mısınız?** – Siz keyin bu yerda ishlaysizmi?

**O kitabı okuyacak mısınız?** – U kitobni o’qiysizmi?

Kelasi zamonda inkor gap yasash uchun **–mayacağım, -mayacak** qo’shimchalari qo’shiladi. Masalan:

**Ben yarın gelmeyeceğim** – Men ertaga kelmayman.

**O sana para vermeyecek** – U senga pul bermaydi.

**Siz burada çalışmayacaksınız** – Siz bu yerda ishlamayisiz.

**O kitap okumayacak** – U kitob o’qimaydi.

O’tgan zamon so’roq, tasdiq va inkor qo’shimchalari.

OLMOSH	SAVOL	TASDIQ	INKOR
<b>Ben</b>	...-acak mıyım ?	...-acağım	- mayacağım
<b>Sen</b>	...-acak mısın ?	...-acaksın	- mayacaksın
<b>O</b>	...-acak mı ?	...-acak	- mayak
<b>Biz</b>	...-acak mıyız ?	...-acağız	- mayacağız
<b>Siz</b>	...-acak mısınız ?	...-acaksınız	- mayacaksınız
<b>Onlar</b>	...-acak mılar ?	...-acaklar	- mayacaklar

Fe’l(ish-harakat) dagi oxirgi unli (oxirgi yoki oxirgidan avval kelgan unli) harflarga ko’ra qo’shimcha harfi o’zgaradi

*Oxirgi harf undosh bo’lib, undan avval  
quyidagi unlilar bo’lsa:*

<b>e, i, ö, ü</b> (+undosh) => - <b>e</b> (-ecek miyim, ...)	Ben <u>ver-ecek miyim</u> , Sen <u>iç-ecek misin</u>
<b>a, ı, o, u</b> (+undosh) => - <b>a</b> (-acak mıyım, ...)	Ben <u>al-cak mıyım</u> , Sen <u>otur-acak mısın</u>
<b>Unlidan keyin</b> => - <b>ya / -ye</b>	Ben <u>yaşa-yacağım</u> , Sen <u>oku-yacaksın</u>

## AYLAR – OYLAR

Ocak - *yanvar*, şubat - *fevral*, mart - *mart*, nisan - *aprel*, mayıs – *may*, haziran - *iyun*, temmuz - *iyul*, ağustos - *avgust*, eylül – *sentabr*, ekim – *oktabr*, kasım - *noyabr*, aralık – *dekabr*.

### 1. MASHQ – O’qing va savollarga tasdiq a inkor shaklda javob bering.

**Masalan:** Yarin o size para verecek mi? - Evet, verecek, - Hayır vermeyecek

1. O sonraki ay otelde çalışacak mı?
2. O yarın istanbuldan gelecek mi?
3. Sen bu işi yapacak mısın?
4. Sen sabah yemeği için yumurta getirecek misin
5. Sen öğlen yemeği hazırlayacak mısın?
6. Sen ben ile lokanta’da yemek yiyecek misin?
7. Siz patron ile konuşacak misiniz?
8. Siz arkadaşınız ile gezecek misiniz?
9. O sonraki ay türkçe öğrenecek mi?
10. Ahmet burada oturacak mı?
11. Onlar bu arabayı satacak mılar?
12. Sen arkadaşın ile beraber bu ev’i temizleyecek misiniz?

### 2. MASHQ – Dialogni yodlang.

- Merhaba, büyürün. Yardım lazım mı?
- Bana iki tane kırmızı gömlek ve bir tane pantolon lazım.
- Hangi renk pantolon istiyorsunuz?
- maviy renk pantolon istiyorum
- Ama, maviy renk hepsi bitti. Siyah var
- Yok. Siyah istemiyorum.
- Beyaz da var. Beyaz renk istiyor musunuz?
- Yok. pantolon almayacağım. Sadece gömlek alacağım
- Gömlekler hepsi bu taraf’ta.
- Hangi gömlek en güzel?
- işte bu en güzel.
- Fiyatı ne kadar?
- beş yüz seksan lira
- Çok iyi, bunu alacağım

### 3. MASHQ – Savollarga javob bering.

1. Bir yılda kaç ay var?
2. Şimdi hangi ay?
3. Hangi aylarda hava soğuk olacak?
4. Hangi ayda hava en sıcak olacak?
5. Bir ayda kaç gün var?
6. Birinci ay hangi ay?

#### 4. MASHQ – Kelasi zamonda gaplar tuzing. Masalan:

Gelmek / Ahmet / yarın / türkiyeden /  
Ahmet dün türkiyeden gelecek mi?  
Hayır, Ahmet türkiyeden gelmeyecek.  
Evet, Ahmet yarın türkiyeden gelecek.

1. Mustafa / gitmek/ iki gün sonra / pazar'a /  
..... ? (savol)  
..... (inkor)  
..... (tasdiq)

2. Ahmet / almak / domates / bir kilo / pazar'dan  
..... ? (savol)  
..... (inkor)  
..... (tasdiq)

3. Hasan / içmek / sonra / çay'dan / kahve  
..... ? (savol)  
..... (inkor)  
..... (tasdiq)

4. Sen / yemek yiyecek / lokanta'da /  
..... ? (savol)  
..... (inkor)  
..... (tasdiq)

5. Sen / ile / beraber / gitmek / Ahmet / istanbul'a  
..... ? (savol)  
..... (inkor)  
..... (tasdiq)

#### 5. MASHQ – Turk tilga tarjima qiling.

1. Siz qachon kelasiz? - Hozir bilmayman. - Keyingi oy kelasizmi ? – Ha kelaman.
2. Siz ertaga bozorga borasizmi ? - Ha, boraman. – Nimalar olasiz? – har narsa
3. Sen tushdan keyin nima qilasan? – Men onam bilan birgalikda uyimizni tozalayman
4. Men ertaga do'stim bilan sayr qilaman.
5. Ertaga u ham biz bilan birgalikda samarqandga boradi.
6. Kechki ovqatni qayerda yeymiz? – Oshxonada yeymiz
7. Men tuxum yeyman. Sen nima yeysan?
8. Biz bugun sayr qilamiz. Keyin uyga kelamiz?
9. Sen uni kutasanmi? Ha kutaman.
10. Sen keyin bu kitobni o'qiysanmi? Ha o'qiyman.
11. Mening ishim tugadi. Sening ishing tugadimi? – Ha mening ishim ham tugadi.
12. Sen yanvar oyida otang bilan birga Toshkentga kelasanmi? - Yo'q kelmayman

# 18-DARS

## SÖZLÜK – LUG’AT.

So’zlarni o’qing va yodlang

<b>Hepsini</b> -hammasini	<b>Kadın</b> - ayol
<b>Onun için</b> - shuning uchun	<b>İçeri</b> - ichkari
<b>Yukarı</b> - yuqori	<b>Girmek</b> - kirmoq
<b>Çikmek</b> - chiqmoq	<b>Veya</b> - yoki
<b>Göstermek</b> – ko’rsatmoq	<b>Pencere</b> - deraza
<b>Hoş geldiniz</b> – xush keldingiz	<b>Taze</b> – yangi oziq-ovqat / yangi pishgan

## DİL BİLGİSİ – GRAMMATIKA

### BUYRUQ FE’LINING İNKOR VA TASDIQ SHAKLI

Buyruq fe’lining inkor va tasdiq shakliga quyidagi gaplar misol bo’la oladi, Masalan:

**Sen burda çalış!** – Sen bu yerda ishla! (tasdiq)

**Sen burada çalışma!** – Sen bu yerda ishlama! (inkor)

**O ev’i temizlesin!** – U uyni tozalasın! (tasdiq)

**O ev’i temizlemesin !** – U uyni tozalamasın! (inkor)

Bunda “Sen” kishilik olmoshiga nisbatan qo’shimcha qo’shilmaydi.

Masalan (**yapmak**- qilmoq) **yap** – qil. Ya’ni **Sen yap** – Sen qil, deganidir

Qo’shimchalar

SHAXS	TASDIQ	İNKOR
Sen	...	...-ma
Siz	...-iniz (ınız)	...-meyiniz (mayınız)
O	...-sın (sın)	...-mesin (masın)
Onlar	...-sinler (sınlar)	...-mesinler (masınlar)

*Masalan:*

Sen bu iş’i yap, Sen bu işi yapma

Siz bugün geliniz, Siz bugün gelmeyiniz

O kitap okusun, O kitap okumasın

Onlar burada çalışsınlar, Onlar burada çalışmasınlar

### 1. MASHQ – O’qing va tarjima qiling

Sen burada otöbus bekleme!.

Bu su temiz değıl, Onun için, Sen buradan su içme!

Sen çok konuşma! Az konuş!

Sen buradan geçme! sol taraftan geç.

Hepsini alma! Sadece iki tane al

Sen bunu yapma, O yapsın!,

Lütfen yukarı çikmeyiniz!

Lütfen ağaçları kesmeyiniz!

Onlar bu taraf'a gelmesinler!  
Ona söyle, şimdi gelsin ve yemek yesin,  
Onlara söyle, yemek yesinler.  
O çay hazırlasın, Sen çay iç. Lütfen, çay içiniz.  
Sen benim evim'e gel! O da gelsin, beraber geliniz.  
Bu bardakları hepsini yıka! Sonra evi temizle, pencere'yi aç  
Kadınlar içeri girsinler. Sonra çay veya kahve içsinler.

## 2. MASHQ – Nuqtalar o'rniga kishilik olmoshlarini (Sen, Siz, O, Onlar) qo'ying

..... kendi yapsın; .... buraya gel; ..... ev'i temizlesinler;  
..... arabayı yıka; ..... odayı temizle; ..... bugün geliniz;  
..... kapıyı kapatsın; ..... pencereyi açsın, ..... pencereyi açsınlar;  
..... pencereyi açınız; ..... bana bunu gösteriniz.

## 3. MASHQ – O'qing va yoddan ayting.

Dükkanda

